ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

4-son

(Iyul-Avgust)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o‘quv-metodik ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida’’gi **2025-yil 20-fevral, 63-son buyrug‘i 4**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o‘quv kurslarining yakuniy test sinovlarini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish to‘g‘risida” **2025-yil 24-fevral, 66-son buyrug‘i..... 16**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash hamda chop etish uchun matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi **2025-yil 26-fevral, 71-son buyrug‘i** 19

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, kasbiy sertifikatlash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarori ijrosi haqida”gi **2025-yil 4-mart, 77-son buyrug‘i** 26

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining **“**Ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 6-mart, 81-son buyrug‘i** 28

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni tashkil etish to‘g‘risida’’gi **2025-yil 17-mart, 86-son buyrug‘i** 43

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” **2025-yil 17-mart, 89-son buyrug‘i..... 101**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o‘quv-metodik ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarori bilan tasdiqlangan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli dasturning 13-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o‘quv reja va dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, nazorat materiallari, o‘quv va uslubiy qo‘llanma hamda videokontentlarni ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va amaliyotga joriy etish orqali tizimdagi ta’lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda ularni maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda ularni maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda - Muvofiqlashtiruvchi kengash) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

O‘quv-metodik ishlarni nashrga tavsiya etish bo‘yicha ruxsatnoma namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2025-yil mart oyidan boshlab maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarining o‘quv reja va dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, nazorat materiallari, o‘quv va uslubiy qo‘llanma hamda videokontentlarni ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish, amaliyotga joriy etish va ularni nashr qilish Muvofiqlashtiruvchi kengash tavsiyasiga

binoan amalga oshirilsin.

3. Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi etib A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Ishchi organ) belgilansin.

4. Ishchi organ bir oy muddatda:

Muvofiqlashtiruvchi kengashning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratish, kerakli ofis jihozlari, texnika vositalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 13-avgustdagi 263-son hamda Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 30-maydagi 32-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Devonxona (X.Raximbaeva) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlariga yetkazsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatisin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 20-fevral,
63-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 20-fevraldagi
63-son buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda ularni maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash to‘g‘risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom o‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda ularni maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini tartibga soladi.

2. O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish va ularni maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda - Muvofiqlashtiruvchi kengash) A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) huzurida tashkil etiladi.

3. Muvofiqlashtiruvchi kengash o‘quv va metodik qo‘llanmalarni ekspertizadan o‘tkazish va ularni maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) vakolatiga ega bo‘lgan doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organ hisoblanadi.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimining o‘quv-metodik ishlar (keyingi o‘rinlarda - o‘quv-metodik ishlar) - darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma’ruzalar to‘plami, mashqlar (masalalar) to‘plami, lug‘at va “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasiga joylashtirilgan malaka oshirish kurslarining o‘quv materiallari kabi turlaridan iboratdir.

5. Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tavsiya etilgan o‘quv va metodik adabiyotlar va boshqa materiallar, unga nashr etish majburiyatini yuklamaydi.

II. Muvofiqlashtiruvchi kengashning maqsadi va asosiy vazifalari

6. Muvofiqlashtiruvchi kengashning maqsadi maktabgacha va maktab ta’limi, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlarning yangi avlodini ekspertizadan o‘tkazish va nashrga tavsiya etish orqali maktabgacha va maktab ta’limi o‘quv-metodik ta’minotining belgilangan talablarga mosligini va sifatini oshirishdan iborat.

7. Muvofiqlashtiruvchi kengashning maqsadidan kelib chiqib quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun tayyorlangan o‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda nashr etishga tavsiya etish;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimining dolzarb muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish;

xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar tarjimalarini ekspertizadan o‘tkazish;

xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TALIS va TIMSS) talablari bo‘yicha pedagog xodimlar hamda ta’lim oluvchilarning nazariy-amaliy bilimlari va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan qo‘llanma, o‘quv va metodik adabiyotlar, tavsiyalar, o‘quv filmlari, audio-video kontentlar, o‘quv-pedagogik hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

8. Muvofiqlashtiruvchi kengash yuqoridagi vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

maktabgacha va maktab ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni bo‘yicha o‘quv-metodik ishlarni muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qiladi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta’limi sohasidagi o‘quv-metodik ishlarni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun olimlar va amaliyotchi-mutaxassislarni jalb etadi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash maktabgacha va maktab ta’lim

tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni ta’lim sohasiga oid o‘quv-metodik ishlarni takomillashtirish borasidagi taklif va tavsiyalarni muhokama qiladi;

maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasiga doir tayyorlangan o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlarni nashrga tavsiya etadi;

nashrga tavsiya etilayotgan o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlariga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining grifini berish bo‘yicha qaror qabul qiladi;

maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi uchun mo‘ljallangan didaktik vositalarni amaliyotga joriy qilish yuzasidan qaror qabul qiladi;

maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha vazirlik va idoralardan materiallami so‘rab oladi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

III. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi

9. Muvofiqlashtiruvchi kengash uning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolaridan iborat tarkibda tashkil etiladi. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi Maktabgacha va ta‘limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibiga oliy ma’lumotli, yuqori malakali, maktabgacha va maktab ta’limi sohasida yuksak salohiyatga hamda o‘quv-metodik va didaktik adabiyotlarni yaratish borasida amaliy tajribaga ega bo‘lgan rahbar, professor-o‘qituvchi hamda mutaxassislar kiritiladi.

10. Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi, rais yo‘q paytda uning o‘rinbosari tomonidan olib boriladi.

11. Belgilangan vazifadan kelib chiqqan holda Muvofiqlashtiruvchi kengash sohaning taniqli mutaxassislari va tajribali pedagoglarini o‘z yig‘ilishlariga, ekspertizalar o‘tkazishga, taqriz hamda tahrir ishlariga jalb etadi.

12. Muvofiqlashtiruvchi kengashga O‘zbekistan Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirining o‘rinbosari jamoatchilik asosida raislik qiladi.

13. Quyidagilar raisning vakolatiga kiradi:

Muvofiqlashtiruvchi kengash ishiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash majlislarining kun tartibi va uni chaqirish muddatini belgilash;

Muvofiqlashtiruvchi kengashga kelib tushgan o‘quv va metodik ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha kengash a‘zolarining faoliyatini tashkil qilish;

zaruratga ko‘ra navbatdan tashqari yig‘ilish chaqirish;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha boshqa ishlarni amalga oshirish.

14. Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibining vazifalari:

Muvofiqlashtiruvchi kengashga kelib tushgan o‘quv va metodik ishlarni navbati bo‘yicha ko‘rib chiqishga kiritish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash kun tartibini shakllantirish hamda unga kiritilgan masalalar bo‘yicha materiallarni to‘plash va yig‘ilishini tashkil etish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolarini yig‘ilish o‘tkaziladigan vaqt to‘g‘risida kamida besh kun oldin xabardor qilish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi bayonnomalarini yuritish;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdan tashqari yig‘ilishlarini o‘tkazilishi yuzasidan bildirishnomalarni kiritish;

yil yakunlariga ko‘ra Muvofiqlashtiruvchi kengash ish rejasining bajarilishi bo‘yicha hisobot tayyorlash.

15. Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolari:

maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni sohasida o‘quv-metodik ishlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash majlislarida ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilishda qatnashish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha yozma xulosalar va og‘zaki tushuntirishlar berish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash majlislarida qabul qilingan qa-

rorlar ijrosini o‘z vakolatlari doirasida ta’minlash.

16. Muvofiqlashtiruvchi kengash har yili o‘z ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek, rais o‘rinbosari, kotib va Muvofiqlashtiruvchi kengashning boshqa a’zolari vazifalarini belgilaydi.

17. Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati bilan bog‘liq xatlar Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanadi.

18. Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va rais yoki uning o‘rinbosari, shuningdek, kotib imzolaydi.

19. Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari uning barcha a’zolariga va manfaatdor shaxslarga yetkaziladi.

IV. Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi

20. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi (keyingi o‘rinlarda - Ishchi organ deb yuritiladi) hisoblanadi.

21. Ishchi organ zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatining tashkiliy-texnik ta’minoti masalalarini hal etish;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdagi davrga mo‘ljallangan ish rejasi loyihasini tayyorlash, uning ijrosini nazorat qilish, tasdiqlangan rejaga muvofiq Muvofiqlashtiruvchi kengashning joriy ishlarini tashkil etish;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning majlislariga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlash, uning o‘tkazilishini tashkillashtirish;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning majlisida ko‘rib chiqishi uchun tahliliy axborot hamda boshqa hujjatlarni taqdim etish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi ustidan nazorat va monitoringni ta’minlash;

kelib tushayotgan murojaatlarni ko‘rib chiqish;

Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari hisobini yuritish va ularni saqlash.

V. Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisiga materiallarni tayyorlash tartibi

22. Ishchi organ Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida ko‘rib

chiqish uchun taqdim etilgan materiallarni rasmiylashtiradi, majlisning kun tartibini tayyorlaydi va hujjatlar to‘plamini taqdim etadi.

23. Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisining kun tartibidagi har bir masala bo‘yicha hujjatlar to‘plami zarur materiallar (tahliliy ma’lumotnomalar, jadvallar va hokazolar) hamda Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori loyihasini o‘z ichiga oladi.

24. Ishchi organ taqdim etilgan materiallarni Muvofiqlashtiruvchi kengash raisiga ma’lum qiladi, rais kun tartibini va taqdim etilgan materiallami maqullagan taqdirda, majlisni o‘tkazish vaqti va sanasini, shuningdek, zarurat bo‘lganda, taklif etiladigan mutaxassislarni belgilaydi.

25. Ishchi organ Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisi o‘tkazilishidan kamida besh kun oldin Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolariga, shuningdek, majlisga taklif etilgan boshqa shaxslarga majlis materiallari va bayonnoma loyihasi tarqatilishini ta’minlaydi.

26. Kun tartibi o‘zgartirilgan taqdirda Ishchi organ Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolarini va majlisga taklif etilgan shaxslarni majlis o‘tkazilishidan kamida uch kun oldin bu haqda xabardor qiladi.

VI. Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish

27. Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiradi. Ovozlar teng bo‘lib qolganida Muvofiqlashtiruvchi kengash raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning har bir a’zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bildirishga etishga haqlidir.

28. Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisining bayonnomasi Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisining o‘quv-metodik ishlarni nashr etishga tavsiya qilish bo‘yicha qabul qilgan qarori tegishli mazmundagi guvohnomani berishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

30. Guvohnomani berish to‘g‘risidagi bayonnoma tasdilangandan so‘ng bir hafta muddatda Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi tomonidan nashrga tavsiya etish yuzasidan kiritilgan ma’lumotlar asosida maxsus portal orqali elektron shaklda guvohnoma shakllantiriladi.

31. Muvofiqlashtiruvchi kengash bayonnomasining asl nusxasi va uning materiallari Ishchi organda saqlanadi.

32. Ishchi organ Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari bajarilishi monitoringini yuritadi.

33. Muvofiqlashtiruvchi kengash o‘z majlislarida qabul qilingan qarorlar ijrosi holatini muntazam ravishda ko‘rib chiqadi.

34. Muhokamaga beriladigan o‘quv va metodik adabiyotlar muallifi yoki mualliflar guruhi tomonidan yozilgan ariza, qo‘lyozma tayyoilangan muassasa yo‘llanmasi hamda Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori, ishning muxtasar bayoni va qo‘ lyozmalarga olim yoki soha mutaxassislari tomonidan berilgan 3 ta taqriz bilan birga ikki nusxada Ishchi organga topshiriladi va ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

35. Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qabul qilingan o‘quv va metodik adabiyotlar 2 oy muddat ichida kamida uch nafar soha mutaxassislaridan (shulardan bir nafari Muvofiqlashtiruvchi kengash a‘zosi bo‘lishi shart) taqriz olinadi. Ayrim munozarali o‘quv va metodik adabiyotlarni muhokama qilish paytida bahsli holat yuzaga kelganda ushbu adabiyotlar jamoatchi ekspertlardan kamida 3 nafarining taqrizi olinishi belgilanadi. Muallif yoki mualliflar guruhi a‘zolari muhokamadan kamida bir hafta oldin taqrizlar bilan tanishtiriladi hamda ularga taqrizchilar takliflarini inobatga olish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga imkoniyat beriladi.

VII. Muvofiqlashtiruvchi kengashning moliyaviy va iqtisodiy faoliyati

36. O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda tavsiya etish (grif berish) pullik xizmatlar asosida amalga oshiriladi.

37. Institut va talabgor o‘rtasida tuzilgan kelishuv shartnomasiga muvofiq xizmatlarning miqdori va narxlari belgilanadi.

38. Kelib tushgan mablag‘lar Institutning budjetdan tashqari

jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

39. Muvofiqlashtiruvchi kengashni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

40. Mazkur Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining buyrug‘i asosida kiritilishi mumkin.

41. Mazkur nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlariga asosan belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 20-fevraldagi
63-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘quv-metodik ishlarni ekspertizadan o‘tkazish hamda ularni maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida foydalanishga tavsiya etish (grif berish) bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash
TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi	Kengashdagi vazifasi
1.	Radjabov Sardor Baxtiyorovich	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari	Kengash raisi
2.	Ismailov Abduvali Abdumalikovich	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori	Kengash raisi o‘rinbosari
3.	Yuldashev Maksudjan Abdullayevich	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i	Kengash a’zosi
4.	Abdunazarova Nargiza Fatxullaevna	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori	Kengash a’zosi
5.	Baxramov Anvar Axrarovich	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi, bo‘lim boshlig‘i	Kengash a’zosi
6.	Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna	Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari	Kengash a’zosi

7.	Raxmankulova Nargiz Xodjiakbarovna	Toshkent shahridagi “A. I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti” filiali direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	Kengash a’zosi
8.	Raximova Surayyo Saloxiddinovna	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti kafedra mudiri	Kengash a’zosi
9.	Ergasheva Malohat Tursunovna	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri	Kengash a’zosi
10.	Jumanazarov Sirojiddin Salaydinovich	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri	Kengash a’zosi
11.	Shomuratova Shirin Xajiyevna	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti	Kengash a’zosi
12.	Botirov Hamid Xakimovich	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bo‘lim boshlig‘i	Kengash a’zosi
13.	Urinbayeva Dilbar Bazarovna	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Boshlang‘ich ta’lim va filologiya fanlari metodikasi kafedra mudiri	Kengash a’zosi
14.	Badalova Maqsuda Umarovna	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, bo‘lim boshlig‘i	Kengash kotibi

Izoh: *Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolari boshqa ishga o‘tganlarida ularning o‘rniga ishga olingan xodimlar tarkibga kiritiladilar.*

Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi uning yig‘ilishi qaroriga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlar uchun menejerlik o‘quv kurslarining yakuniy test sinovlarini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida hamda 2023-yil 27-avgustdagi 531-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida nizomlarga muvofiq, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida tashkil etilgan menejerlik o‘quv kurslarining yakuniy test sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) hamda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida (keyingi o‘rinlarda — Maktabgacha ta’lim instituti) tashkil etilgan menejerlik o‘quv kurslarining yakuniy test va keys sinovlarini o‘tkazish 2025-yil fevral oyidan boshlab Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga (keyingi o‘rinlarda - Markaz) yuklatilsin.

2. Markaz (D.Davidova)ga:

bir hafta muddatda Institut hamda Maktabgacha ta’lim institutidan menejerlik o‘quv kurslari uchun yakuniy test sinovlari va keys topshiriqlari bazalarini qabul qilish hamda belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazish;

menejerlik o‘quv kurslarining o‘quv dasturi mazmunidan kelib

chiqib test va keyslar bazasini boyitib borish;

Institut hamda Maktabgacha ta’lim instituti bilan kelishilgan holda yakuniy test sinovlarini o‘tkazish kunlarini belgilash;

tinglovchilar bilim va ko‘nikmalarini baholash jarayonlarining shaffof va adolatli o‘tkazilishini ta’minlash;

tinglovchilarning yakuniy test sinovlari natijalarini test o‘tkazilgan kundan so‘ng bir kun muddat ichida Institut hamda Maktabgacha ta’lim institutiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Institut (A.Ismailov), Maktabgacha ta’lim instituti (N.Abdunazarova)ga:

amaliy topshiriqlarning natijalari asosida test va keys sinovlarida ishtirok etadigan tinglovchilar ro‘yxatini shakllantirish va Markazga taqdim etib borish;

Markaz bilan kelishilgan holda yakuniy test sinovlarini o‘tkazish kunlarini belgilash va sinovlar o‘tkaziladigan kundan kamida yetti kun oldin kurs tinglovchilariga e’lon qilish;

yakuniy test sinovlari natijalarini maxsus portal orqali tinglovchilarga ma’lum qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Belgilansinki:

yakuniy test sinov natijalaridan norozi bo‘lgan tinglovchilarning arizalari (shikoyatlari) belgilangan tartibda Institut va Maktabgacha ta’lim institutida tashkil etiladigan apellyatsiya komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqiladi;

apellyatsiya komissiyalari tarkibiga Markazning bir nafar xodimi jalb etiladi;

Institut va Maktabgacha ta’lim instituti tomonidan test va keys sinovlarini o‘tkazish uchun Markazga yakuniy sinovlarda ishtirok etgan har bir direktor lavozimiga nomzod uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida mablag‘lar o‘tkazib boriladi;

reja-taqsimotga kiritilgan amaldagi direktorlarning test va keys sinovlarini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar vazirlikdan ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan Markazning xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

5. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev) menejerlik o‘quv kurslarining yakuniy test sinovlarini tashkil etish va o’tkazishda mazkur

buyruq talablariga qat'iy rioya etilishini nazorat qilib borsin.

6. Devonxona (X.Raximbaeva) ushbu buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 24-fevral,
66-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash hamda chop etish uchun matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga 2025-2026-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash va matbaa korxonalariga taqdim etish hamda ularni o‘z vaqtida chop etilishini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga 2025-2026-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalar (keyingi o‘rinlarda - darsliklar) ning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash va matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini qabul qilish bo‘yicha ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda - ishchi guruhi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Chop etishga tayyor holdagi darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original va tarjima maketlarini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi shakli 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika ta’lim markaziga:

vazirlik buyurtmasiga ko‘ra Respublika ta’lim markazida darsliklarning original maketi va signal nusxalarini nashrga tayyorlash, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash (vakolatli tashkilotlar tomonidan nashrga tavsiya etilgan darsliklar bundan mustasno) hamda va boshqa nashriyotlarda nashrga tayyorlangan darsliklarni o‘quv dasturlariga mosligini ekspertizadan o‘tkazish, fanlar yo‘nalishi-

dagi Ilmiy-metodik kengashlarda muhokama qilish, mazmuniga doir xulosalar tayyorlash, shuningdek, ularning original va tarjima maketlarni qabul qilib olish hamda o‘rnatilgan tartibda vazirlikka taqdim etish;

darsliklarning elektron fayllarini chop etish uchun belgilangan tartib asosida tanlab olingan korxonalarga o‘rnatilgan tartibda taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Belgilansinki, matbaa korxonalarida chop etish jarayonida darsliklarda texnik yoki mazmunga doir xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ushbu xato va kamchiliklar darsliklarning original va tarjima maketlarini tayyorlagan mas’ul tashkilotlar tomonidan bepul tuzatiladi.

4. Ishchi guruhiga:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasi uchun xarid qilinadigan darsliklarning nashrga tayyor holdagi original, tarjima maketlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrdagi 726-son qarorida belgilangan parametrlarga mos kelishi yuzasidan “O‘zbekekspertiza” aksiyadorlik jamiyatining muvofiqlik sertifikati hamda mazmuni bo’yicha ekspert guruhining ijobiy xulosalari mavjudligini tekshirish;

mazkur buyruqning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan dalolatnomani o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

darsliklarning original va tarjima maketlarini qabul qilish bo‘yicha ishchi guruhi faoliyatini o‘rnatilgan tartibda tashkil etish;

qabul qilib olingan darsliklarning original va tarjima maketlarini elektron va signal nusxasini jamlash va saqlash vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 26-fevral,
71-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 26-fevraldagi
71-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga 2025-2026-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash va matbaa korxonalariga taqdim etish

TARTIBI

1. Mazkur tartib, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga 2025-2026-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalar (keyingi o‘rinlarda - darsliklar)ning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash va matbaa korxonalariga taqdim etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoida

2. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga 2025-2026-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan (qayta nashr etiladigan) darsliklarning original, tarjima maketlarini topshirish va qabul qilish, signal nusxalarini tasdiqlash va matbaa korxonalariga taqdim etish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi (keyingi o‘rinlarda **–** RTM) tomonidan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

yaratilgan darsliklarni tasdiqlash;

RTM va boshqa nashriyotlarda nashrga tayyorlangan darsliklarni o‘quv dasturlariga mosligini ***ekspertizadan o‘tkazish*** *(vakolatli tashkilotlar tomonidan nashrga tavsiya etilgan darsliklar bundan mustasno);*

fanlar yo‘nalishidagi Ilmiy metodik kengashlarda ***muhokama qilish****;*

mazmuniga doir ***xulosalar tayyorlash****;*

ularning original va tarjima maketlarini ***qabul qilib olish*** *ham-*

*da o‘rnatilgan tartibda **vazirlikka taqdim etish;***

*vazirlik tomonidan darsliklarni foydalanishga **tavsiya etish**;)*

matbaa korxonalariga taqdim etish.

3. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

original maket - ilk kitob shaklidagi yangi va qayta nashr etish uchun asos bo‘lgan darslik maketi, boshqa tilga tarjima qilishga asos bo‘lgan matn;

tarjima maket - original maket asosida boshqa tilga tarjima qilingan maket; **signal nusxasi** - chop etishga tayyor holga keltirilgan darslikning ilk nusxasi; **tavsiya etish** - ma’qullash, ruxsat etish;

tasdiqlash - topshiriladigan darsliklarning original va tarjima maketini RTM (va darsliklar yaratgan boshqa nashriyotlar) direktori, o‘rinbosarlari, tegishli fan bo‘yicha bo‘lim boshliqlari, metodist-mutaxassislari hamda ekspertlar guruhi, muallif(lar), muharrir, musahhih, tarjimon, texnik-muharrir tomonidan ko‘rib chiqilib, imzo bilan tasdiqlanishi va vazirlik tomonidan nashrga tavsiya etilishi.

2-bob. Darsliklarni tasdiqlash, matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-fevraldagi 108-son qarorlariga muvofiq RTMga muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik majmualarning yagona maketlarini yaratish vakolati berilganligini inobatga olib, darsliklarning (original va tarjima) rangli maketlari RTM tomonidan nashrga tayyorlanib, markazning fan yo‘nalishlari bo‘yicha Ilmiy-metodik kengash yig‘ilishlarida atroflicha muhokamadan o‘tkazilib, yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etiladi. Maketlar RTMning tegishli fan metodistlari, mualliflar, muharrir, musahhih, tarjimon, texnik-muharrirlar tomonidan betma-bet imzolanadi, RTM direktori va uning o‘rinbosarlari, tegishli bo‘lim boshliqlari hamda metodist-mutaxassislari (ekspertlar) tomonidan ko‘rib chiqilib, imzolar bilan tasdiqlanadi. RTM darslik yaratgan boshqa nashriyotlarda nashrga tayyorlangan darsliklarni o‘quv dasturlariga mosligini ekspertizadan o‘tkazadi va tegishli xulosalar beradi.

5. Darsliklar yaratgan boshqa nashriyotlar tomonidan ham darsliklarni tasdiqlash 4-bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi, shuningdek, tasdiqlangan maketlar topshirish va qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirish orqali RTMga topshiriladi.

6. RTM o‘rnatilgan tartibda (shu jumladan, darsliklar yaratgan boshqa nashriyotlar tomonidan) tasdiqlangan maketlarni vazirlikka rasmiy xat bilan taqdim etadi. Ushbu maketlar vazirlik tomonidan talab darajasida tayyorlangan deb topilganda nashrning keyingi bosqichiga tavsiya etiladi.

Shuningdek, tasdiqlash uchun taqdim etilgan maketlar vazirlik tomonidan (lozim bo‘lganda, mutaxassislar jalb etilgan holda) saylanma tarzda ko‘rib chiqilishi mumkin, maketlarda xato-kamchiliklar aniqlangan taqdirda, maketlarni tayyorlagan boshqa nashriyotlarga qayta ishlash uchun qaytariladi.

7. Darsliklarni chop etish uchun tender, tanlov va auksion savdolari g‘oliblari bo‘lgan (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladigan) matbaa korxonalariga darsliklarning chop etishga tayyor holdagi elektron (ishchi) fayllari maketlarni tayyorlagan boshqa nashriyotlar tomonidan rasmiy xat orqali taqdim etiladi.

8. Matbaa korxonalari tomonidan darsliklarning elektron (ishchi) fayllarida mazmunga doir yoki texnik xato-kamchiliklar, nuqsonlar aniqlangan taqdirda, (ishchi) fayllar maketlarni tayyorlagan nashriyotlarga rasmiy xat bilan qaytariladi.

9. Maketlarni tayyorlagan nashriyotlar maketlarda aniqlangan xato-kamchiliklar, nuqsonlarni o‘z hisobidan bartaraf etilishini ta’minlaydi va chop etishga tayyor holda korxonaga rasmiy xat bilan qayta taqdim etadi.

10. Darsliklarni chop etish bo‘yicha shartnoma tuzgan matbaa korxonalari tomonidan darsliklarning 3 dona rangli signal nusxasi tayyorlanib, mazkur tartibning 2-bandida ko‘rsatilgan tartibda tasdiqlanadi.

11. Maketlarni tayyorlagan boshqa nashriyotlar tomonidan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan darsliklarning signal nusxalari vazirlikka taqdim etiladi hamda vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan chop etishga ruxsat etilib, foydalanishga tavsiya qilinadi.

12. Ushbu tartibda tasdiqlanmagan darsliklar chop etishga ruxsat etilmaydi.

13. Darsliklarning o‘quv dasturlariga mosligi, mazmunida va texnik jihatdan xato-kamchiliklar bo’lmasligiga RTM hamda darsliklar yaratgan nashriyotlar javobgar hisoblanadi.

4-bob. Yakuniy qoida

14. Mazkur tartib talablarini buzgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralari ko‘riladi.

15. Ushbu tartibda aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2025-yil 26-fevraldagi
71-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Darsliklar, mashq daftarlari va metodik qo‘llanmalarning original, tarjima maketlarini qabul qilish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	D.Norboyeva	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari
2.	Q.Almardanov	Darsliklar bo‘limi boshlig‘i, a’zo
3.	Z.Zarifullayev	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo
4.	A.Tashkentov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo
5.		

Izoh: *Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, kasbiy sertifikatlash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, kasbiy sertifikatlash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-fevraldagi 130-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish va kasbiy sertifikatlash boshqarmasi (S.Raximboyev) Qarorga muvofiq ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani pedagoglari, pensiya yoshidagi pedagoglar hamda oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov):

ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining attestatsiyasi yangi tartibda tashkil qilinishini inobatga olgan holda “test.uzedu.uz” platformasini takomillashtirish;

“test.uzedu.uz” platformasini malaka (test) sinov natijalaridan Vazir jamg‘armasiga nomzodlarni saralab olish choralarini ko‘rsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga: ta’lim muassasalari rahbarlari

bilan birgalikda ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pensiya yoshidagi pedagoglar hamda oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan pedagoglarni o‘z vaqtida jalb etish hamda attestatsiyadan o‘tkazish;

pedagoglarni attestatsiyadan o‘tish lozimligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilish hamda attestatsiyadan o‘tkazish tartibi bilan tanishtirish;

Qarorga muvofiq xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini olgan pedagog kadrlarga tarif stavkalarining amaldagi miqdorlariga nisbatan 70 foiz miqdorida qo‘shimcha haq to‘lash vazifalari yuklatilsin.

5. Axborot xizmati (D.Sobirova) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan Qaror yuzasidan ommaviy axborot vositalari, vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta’minlasin.

6. Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish va kaszbiy sertifikatlash boshqarmasi (S.Raximboyev) Yuridik boshqarma (Sh.Mamadiyorov) bilan birgalikda bir oy muddatda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qarorga muvofiqlashtirish choralarini ko‘rsin.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 4-mart,
77-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida

Ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash hamda ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish to‘g‘risida nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagoglarning shaxsiy xususiyatlari va pedagogik salohiyatini aniqlash maqsadida bosqichma-bosqich psixologik so’rovnomalar (keyingi o‘rinlarda - psixologik so‘rovnomalar) tashkil etilsin.

3. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (A.Kamalov), O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova)ga:

psixologik so‘rovnomalarni tashkil etish uchun mas’ul xodimlar ro‘yxati hamda o‘tkazish reja-grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash;

psixologik so‘rovnomalarni tashkil etishda, zamonaviy psixologik metodlar va pedagogik asoslarga tayanish, pedagogning ruhiy holati, emotsional intellekti hamda o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini aniqlashga qaratilgan psixologik so‘rovnomalar ishlab chiqish;

psixologik so‘rovnomalar natijalari bo‘yicha tahlillar tayyorlash hamda ular asosida rahbar va pedagoglar uchun individual rivojlanish rejalarini tuzish;

pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birga, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish maqsadida rahbarlar va pedagoglar uchun amaliy seminar-treninglar tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash bo‘limi (S.Maxsudov), Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), O‘quvchilami kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda ikki hafta muddatda saylanma tarzida xususiy, oilaviy nodavlat va DXSH asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari o‘rtasida psixologik so‘rovnomalar tashkil etsin va natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

psixologik so‘rovnomalarni tashkil etish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tashrif buyuruvchi mutaxassislarga amaliy yordam berish;

bir oy muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizomning mazmun-mohiyatini ta’lim tashkilotlari rahbar, rahbar o‘rinbosarlari va pedagoglariga yetkazish;

ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etish;

pedagog xodimlarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish;

ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, ularni tahlil qilish hamda har oy yakunida O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markaziga taqdim etib borish

vazifalari yuklatilsin.

6. Devonxona (X.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar va tasarrufdagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 6-mart,
81-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 6-martdagi
81-son buyrug‘iga
ILOVA

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, bartaraf etish hamda qarshi kurashish to‘g‘risida NIZOM

I-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta’lim, ixtisoslashtirilgan, ijod hamda Prezident maktablari, maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - ta’lim tashkilotlari) tarbiyalanuvchilar va o‘quvchilariga (keyingi o‘rinlarda - bolalar) nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish va unga qarshi kurashish tartiblarini belgilaydi.

1.2 Nizom bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni (2024-yil 14-noyabr O‘RQ-996-son) hamda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya majburiyatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.3. Zo‘ravonlik jismoniy, psixologik, emotsional, jinsiy va iqtisodiy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin va uning har qanday ko‘rinishi taqiqlanadi.

1.4. Nizomning maqsadi ta’lim muassasalarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish va xavfsiz ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Bu orqali har bir bola o‘zini himoyalangan, qo‘llab-quvvatlangan his etib, xavfsiz muhitda tarbiyalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi ta’minlanadi.

1.5. Ushbu nizom quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

bolalarning huquqlari va xavfsizligini himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning jismoniy va psixologik salomatligini saqlash uchun choralar ko‘rish;

ta’lim tashkilotlarida zo‘ravonlikka qarshi samarali profilaktika choralarini amalga oshirish, pedagoglar va xodimlarni muntazam o‘qitish va xabardorlik darajasini oshirish;

bolalar o‘rtasida do‘stlik, hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirish, ularning psixologik barqarorligini ta’minlash;

zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va ularga javob choralarini belgilash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, har bir murojaatni operativ va xolis ko‘rib chiqish;

bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, ularning ijtimoiy himoyasi va qonuniy manfaatlarini kafolatlash;

ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularga bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va uning salbiy oqibatlari haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish.

1.6. Ta’lim tashkilotlarida bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy tamoyillar:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy eng ustun manfaatlarini ta’minlash;

bolaning hayoti, salomatligi va daxlsizligini himoya qilish;

bolalarning tahqirlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

bolaga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik;

bolaning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;

ta’lim tashkilotlarida bolalar uchun xavfsiz muhitni ta’minlash;

bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash;

bolalarga zo‘ravonlik hodisalari haqida xabar berish va ularni eshitish imkoniyatini ta’minlash.

1.7. Ta’lim tashkilotlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik holatlarining ishtirokchilari:

bolalar (zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilar, aybdorlar, zo‘ravonlik holatlarining guvohlari);

ta’lim tashkilotlari xodimlari (ma’muriyat, pedagogik xodimlar, tarbiyachi va metodist mutaxassislar psixologlar, inspektor-psixologlar, tibbiyot xodimlari, texnik xodimlar);

bolalarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda - qonuniy vakillar);

jamoatchilik vakillari va kuzatuvchilar.

Ta’lim tashkilotlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik holatlarining barcha ishtirokchilari ushbu nizom talablari bilan

tanishtiriladi.

1.8. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

zo‘ravonlik - bu o‘ziga yoki boshqa shaxsga yoki guruhga nisbatan jismoniy, ruhiy (psixologik), emotsional yoki iqtisodiy zarar yetkazishga qaratilgan har qanday harakat yoki harakatsizlik;

jismoniy zo‘ravonlik - jismoniy kuch ishlatish bilan bolaga har xil og‘irlikdagi zarar yetkazish, og‘riq, noqulaylik, uning qadr-qimmatini kamsitishga olib keladigan harakatlar, shu jumladan, zarbalar (qo‘l, oyoq, har qanday narsa yordamida), bolani xavf ostida qoldirish, kaltaklash, itarish, tepish, urish, tishlash, qo‘llarini qayirish, barmoqlarini siqish, bo‘g‘ish, sochini tortish, silkitish, har qanday narsa yoki qurol bilan hujum qilish;

ruhiy (psixologik) zo‘ravonlik - bolaning qadr-qimmatini kamsitish, e’tiborsiz qoldirish, rad etish, masxara qilish, nazorat qilish yoki ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilishga qaratilgan qasddan og‘zaki yoki xulq-atvorlik harakatlar, masxara qilish, laqab qo‘yish, tuhmat qilish, tahdid qilish, irodasini sindirish, muloqot qilishdan, guruhdan, o‘yindan, sport mashg‘ulotidan yoki boshqa tadbirdan chetlashtirish, shuningdek, haqorat qilish, qo‘pol va kamsituvchi so‘zlar, so‘kinishlar, bolaning o‘zini o‘zi qadrlashi, hurmati va ruhiy salomatligiga putur yetkazish;

emotsional zo‘ravonlik - bolaning his-tuyg‘ularim qasddan tahqirlash, uni kamsitish, yolg‘on yoki salbiy gaplar aytish, uning qadr-qimmatini pasaytirishga qaratilgan har qanday harakatlar qilish;

jinsiy zo‘ravonlik - bolaning o‘zining yoshiga va rivojlanishiga tayyor emasligi, jamiyat qonunlari va ijtimoiy taqiqlarni buzgan holda, bolaning o‘zi tushunmaydigan va rozi bo‘lmaydigan jinsiy munosabatlarga majburlash yoki rag‘batlantirish. Bolaga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik uchinchi shaxslar bilan jinsiy aloqada bo‘lishga majburlash, boladan fohishalik uchun foydalanish, bolani pornografik tomoshalar va materiallarda ekspluatatsiya qilish;

iqtisodiy zo‘ravonlik - bolani moddiy resurslardan mahrum qilish, uning ta’lim va ijtimoiy taraqqiyotiga zarar yetkazuvchi harakatlar;

ijtimoiy-psixologik muhit - ta’lim tashkilotlarida bolalar, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, u bolalarning emotsional, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga

ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit bolalarda ishonch, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, salbiy muhit esa qo‘rquv, ishonmaslik va stressga olib kelishi mumkin;

diskriminatsiya - irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, kasalligi yoki boshqa holatlarga asoslangan har qanday tafovut, istisno qilish, cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

konfidensiallik (ishonch, maxfiylik) - ma’lum ma’lumotlarni, shaxsiy ma’lumotlarni, shaxsning shaxsiy hayoti, uning sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlash prinsipi. Bunday ma’lumotlardan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida xabardor bo‘lgan shaxs ushbu ma’lumotni sir saqlashi va egasining roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi shart;

e’tiborsizlik - bolaning ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va xavfsizligiga befarqlik bilan munosabatda bo‘lish, uning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan harakat yoki harakatsizlik. E’tiborsizlik bolaning rivojlanishiga va o‘zini qadrsiz his qilishga olib kelishi mumkin;

ekspluatatsiya - bu boladan boshqa birovning iqtisodiy yoki jinsiy manfaatlari, qoniqish yoki foyda olish uchun foydalanish, bu ko‘pincha bolaga nisbatan adolatsiz, shafqatsiz va zararli munosabatda bo‘lishiga olib keladi.

II-bob. Ta’lim tashkilotlaridagi zo‘ravonlik holatlarini oldini olish borasidagi harakat bosqichlari

Zo‘ravonlik holatlarini oldini olish va ularga qarshi kurashish strategiyasi

2.1. Profilaktika va xabardorlik:

zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha ta’lim muassasalarida maxsus dasturlar ishlab chiqish;

bolalar, pedagoglar va ota-onalar uchun zo‘ravonlikning turlari, uning salbiy ta’siri va uning oldini olish choralari bo‘yicha muntazam o‘quv-seminarlar o‘tkazish;

zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha axborot kampaniyalarini tashkil etish, ishonch telefonlari va anonim murojaat qilish mexanizmlarini joriy etish.

2.2. Tashxis va monitoring:

ta’lim tashkilotlarida muntazam ravishda bolalar va pedagog-

lar o‘rtasida so‘rovnomalar va tahlillar o‘tkazib, zo‘ravonlik holatlarini aniqlash;

bolalarning psixologik holatini baholash uchun psixologik testlar va individual suhbatlar tashkil etish;

ta’lim tashkilotidagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash bo‘yicha monitoring olib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.

2.3. Munosabat bildirish va javob choralari:

zo‘ravonlik holatlari aniqlangan taqdirda, ta’lim tashkiloti rahbariyati zudlik bilan tegishli choralar ko‘rishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi lozim;

bolalarni himoya qilish bo‘yicha ichki ishchi guruh tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish choralarini ko‘rish;

zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash hamda ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish choralarini ko‘rish.

Har bir murojaatni xolis va shaffof ko‘rib chiqish hamda jabrlanuvchilarga psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatish.

2.4. Mas’uliyat va javobgarlik:

pedagoglar, ta’lim tashkiloti xodimlari va rahbariyati tomonidan bolalarni himoya qilish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish;

bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik choralari qo‘llanilishini ta’minlash;

zo‘ravonlik holatlariga nisbatan bee’tiborlikka yo‘l qo‘ygan xodimlarga nisbatan intizomiy choralar qo‘llash;

bolalarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan choralarni doimiy ravishda takomillashtirish va monitoring qilish.

III-bob. Ta’lim tashkiloti xodimlarining zo‘ravonlik holatlarini oldini olish borasidagi majburiyatlari

3.1. Ta’lim tashkilotining har bir xodimi bolaga nisbatan barcha turdagi zo‘ravonlik harakatlarini sodir etish yoki uchinchi shaxs tomonidan uni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi;

3.2. Ta’lim tashkilotida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashishga quyidagi shaxslar mas’ul hisoblanadi:

ta’lim tashkiloti direktori;

direktor o‘rinbosarlari;

pedagogik jamoasining a’zolari;

tashkilot psixologi va inspektor-psixolog;

tarbiyachi, sinf rahbar;

ta’lim tashkilotining texnik xodimlari.

3.3. Zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’lim tashkiloti rahbarining majburiyatlari:

ta’lim tashkilotida xavfsiz va ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etish va ta’minlash;

ta’lim tashkilotida inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan zo‘ravonliksiz munosabatlarni shakllantirish, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlash;

ta’lim tashkiloti xodimlari, bolalar va ularning qonuniy vakillarini ta’lim tashkilotining zo‘ravonlikka qarshi olib borayotgan faoliyati bilan yaqindan tanishtirib borish;

ichki mehnat qoidalariga, ta’lim tashkilotining nizomi va ish rejasiga zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha maxsus chora-tadbirlarni kiritish;

zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha maqsadida tarbiyachilar, pedagog xodimlar va texnik xodimlar bilan pedagogik kengash, ota-onalar majlisi, sinf soatlarini o‘tkazish;

o‘zining xizmat vazifalariga barcha tegishli funksiyalarni kiritgan holda zo‘ravonlikning oldini olish va zo‘ravonlik holatlariga chora ko‘rishni muvofiqlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlarini tayinlash;

zo‘ravonlikning oldini olish, zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilish va ishtirokchilarga yordam ko‘rsatish maqsadida ta’lim tashkiloti mutaxassislari (psixolog, inspektor-psixolog, tibbiyot xodimi) ishini tashkil etish;

zo‘ravonlik holatlari oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’limning boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam va boshqalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

ta’lim tashkilotida xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida ta’limning boshqaruv organlariga hisobot berish.

3.4. Zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’lim tashkiloti direktori o‘rinbosarining

majburiyatlari:

bolalarning xavfsizligi va himoyasini ta’minlash bo‘yicha ichki nazorat tizimini tashkil etish va uni amalga oshirish;

pedagoglar va xodimlar o‘rtasida zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy ishlar olib borish, ularning muntazam malakasini oshirishni ta’minlash;

ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda bolalarni himoya qilishga qaratilgan dasturlarni tashkil etish;

pedagog xodimlarning ta’lim dasturlari va o‘quv-tematik rejalarini tasdiqlash, zo‘ravonlik holatlari yoki har qanday asosda kamsitishning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar senariyalari va dasturlari, ularni amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish;

pedagog xodimlarga dars jarayoni va mashg‘ulotlarda qulay psixologik muhit yaratishda uslubiy yordam berish, ta’lim tashkiloti xodimlari va bolalar tomonidan intizom, qoidalari va axloqiy me’yorlarga rioya etilishini nazorat qilish;

pedagogik xodimlarni bolalar bilan ishlashda axloqiy va etik me’yorlarga rioya qilish bo‘yicha yo‘naltirish va nazorat qilish;

bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish;

ushbu Nizom asosida belgilangan ichki mehnat tartibi qoidalariga muvofiq zo‘ravonlik holatlariga munosabat bildirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishini ta’minlash;

har bir zo‘ravonlik holati, o‘rganilish jarayoni va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida rahbarga hisobot berish;

giyohvandlik vositalari va psixofaol moddalarni iste’mol qilishda aniqlangan, ilgari zo‘ravonliklar;

pedagoglar tomonidan bolalarning ruhiy va jismoniy holatini kuzatib borilishi va zarur hollarda yordam ko‘rsatilishini nazorat qilib borish;

zo‘ravonlik harakati sodir etgan, nizolarga moyil bo‘lgan bolalarni alohida nazoratga olish;

bolalarga nisbatan psixologik yordam va reabilitatsiya jarayonlarini tashkil etish hamda ularning samaradorligini ta’minlash;

turli shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va boshqa omillar ta’sirida zo‘ravonlik va kamsitish qurboni bo‘lish xavfi yuqori bo‘lgan alohida ehtiyojli bolalarning ta’lim olishi, xulq-atvorini nazoratga olish;

alohida ta’limga ehtiyojli, rivojlanishida va xulq-atvorida buzilishlarga ega bo‘lgan bolalarni va zo‘ravonlik kamsitishlarga duchor bo‘lish xavfi ostida bo‘lgan boshqa bolalarni, shuningdek, zo‘ravonlik harakatlari tufayli ichki ro‘yxatiga olingan bolalar to‘g‘risida tizimli monitoringini amalga oshirish;

3.5. Zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’lim tashkiloti pedagogik jamoasi har bir a’zolarining majburiyatlari:

bolalar xavfsizligi bo‘yicha o‘z vazifalarini bilish va ularni so‘zsiz bajarish;

bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish va aniqlangan holatlarga tezkor munosabat bildirish bo‘yicha malakalarga ega bo‘lish;

bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirish;

bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilmasligini ta’minlash uchun o‘z xatti-harakatlari va munosabatlariga jiddiy e’tibor berish;

bolalarning ruhiy va jismoniy holatini kuzatib borish va zarur hollarda yordam ko‘rsatish;

barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lish;

hech bir bolani befarq qoldirilmaslik, ularning ehtiyojlari, fikrlari va muammolari e’tiborga olish;

bolalar, ularning qonuniy vakillari, jismoniy shaxslar bilan muloqot qilishda ichki tartib qoidalari va odob-axloq me’yorlariga qat’iy rioya qilish;

iqtisodiy va oilaviy ahvoli, sog‘lig‘i, maxsus ta’limga ehtiyojlari, rivojlanish xususiyatlari, millati, diniy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq kamsitishlarga (diskriminatsiya) yo‘l qo‘ymaslik;

zo‘ravonlikning oldini olish borasida bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish, muloqot hamda nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni ko‘nikmalarini shakllantirish;

nizolarni barvaqt aniqlash, guruhlarni tuzish, ajratib qo‘yiladigan va ta’qib qilinadigan yopiq, muloqotga kirishmaydigan, hissiy jihatdan beqaror bolalarni, shu jumladan rivojlanish va xulq-atvor xususiyatlariga ega bo‘lgan bir guruh bolalar faoliyatini doimiy nazorat qilib borish hamda ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish;

guruhlar va sinflardagi ijtimoiy-psixologik muhitni tashxis qilish va yaxshilash, zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilish, bolalar bilan suhbatlar o‘tkazish, ularning qonuniy vakillariga maslahatlar berish uchun psixologlarni jalb qilish;

bolalarning qonuniy vakillari bilan bolalarning xatti-harakatlari bilan bog‘liq muammolarni (tajovuzkorlik yoki uyatchanlik, ajralib qolish va boshqa) ularni bartaraf etish bo‘yicha birgalikdagi harakatlarni o‘z vaqtida muhokama qilish;

tez tibbiy yordamni chaqirish va ta’lim tashkiloti tibbiyot xodimi tomonidan birinchi yordamni ko‘rsatilishini ta’minlash;

bola tomonidan yoki bolaga nisbatan zo‘ravonlik harakatlari sodir etilgan taqdirda, amaldagi Nizomga muvofiq tartibda harakat qilish.

3.6. Zo‘ravonlikni oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’lim tashkiloti psixologi va inspektor-psixologning majburiyatlari:

ta’lim tashkilotlarida bolalarning psixologik holatini muntazam ravishda monitoring qilish va tahlil etish;

bolalar o‘rtasida zo‘ravonlikka moyillikni aniqlash va uning oldini olish choralarini ko‘rish;

bolalarga psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish, ularning ruhiy barqarorligini ta’minlash;

zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar uchun individual va guruhli terapiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ota-onalarga bolalarning psixologik holati va ularni himoya qilish bo‘yicha maslahatlar berish;

bolalar bilan ishlashda maxfiylik va etik me’yorlarga rioya qilish;

zo‘ravonlik holatlari haqida o‘z vaqtida tegishli idoralarga xabar berish va ular bilan hamkorlikda ishlash;

tarbiyachilar bilan muntazam ish olib borish, ularga bolalarning psixologik holati, individual yondashuv va stressni boshqarish bo‘yicha maslahat berish;

tarbiyachilar uchun zo‘ravonlikni oldini olish va bolalarning ruhiy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha amaliy treninglar tashkil etish;

bolalar bilan ishlashdagi muammoli holatlarni tarbiyachilar bi-

lan muhokama qilish va ularga yechim topishda yordam berish;

pedagog va xodimlarga bolalarning ruhiy holatini yaxshilash bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatish;

ta’lim tashkilotidagi alohida guruh va sinflardagi ijtimoiy-psixologik muhitni tahlil qilish, uni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish va uni yaxshilashda tarbiyachilar hamda sinf rahbarlari, ta’lim tashkilotining boshqa xodimlari, bolalar va ularning qonuniy vakillarga ko‘maklashish;

bolalar va xodimlariga shaxslararo muloqot va pedagogik jamoaga moslashishdagi muammolar yechimini topishda ko‘maklashish, zo‘ravonlik qurbonlarini aniqlash va ularga o‘z vaqtida ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish;

alohida ta’limga ehtiyojli, rivojlanishida va xulq-atvorida buzilishlarga ega bo‘lgan bolalarni va zo‘ravonlik kamsitishlarga duchor bo‘lish xavfi ostida bo‘lgan boshqa bolalarni, shuningdek, zo‘ravonlik harakatlari tufayli ichki ro‘yxatiga olingan bolalar bilan alohida psixologik yordam ko‘rsatadi;

ta’lim tashkilot xodimlariga, bolalarga va ularning qonuniy vakillariga tajovuzkor xatti-harakatlarning oldini olish, ijobiy tarbiyalash, nizolarni hal qilish va ularga zarur yordam ko‘rsatish bo‘yicha maslahat berish;

zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilishda ishtirok etish, jabrlanuvchi, huquqbuzar va guvohlarning psixologik holatini baholash, ularga zarur ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish;

tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalar, psixologik xizmatlar, oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish markazlari, reabilitatsiya markazlari, zo‘ravonlik qurbonlari va nizoli vaziyatlarning boshqa ishtirokchilariga yordam ko‘rsatish uchun tibbiy xizmatlar mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

3.7. Zo‘ravonlik holatlarini oldini olish, uni bartaraf etish hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha ta’lim tashkiloti texnik xodimlarining majburiyatlari:

ta’lim tashkiloti binosi va uning hududiga begona shaxslar kirmasligini, bolalarni dars va mashg‘ulotlar tugaguniga qadar sababsiz (uzrli sabablardan tashqari) tark etmasligini ta’minlash;

bolalarni ta’lim tashkiloti hududida kuzatib borish va zo‘ravonlik holatlari, shuningdek bolalarning xatti-harakatlari to‘g‘risida sinf rahbari yoki tarbiyachisiga, mas’ul direktor o‘rinbosariga xa-

bar berish;

nizolarni to‘xtatish, bolalarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish va tez yordam chaqirish;

bolalarning zo‘ravonlik harakatlari sodir etilishi mumkin bo‘lgan texnik xonalarga (yerto‘la, omborxona, qozonxona, garaj) va boshqa joylarga (zinapoyalar, vestibyullar ostida, ta’lim tashkilotlari chekka hududlariga) kirishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda shunday joylarda bolalar aniqlansa, ular qanday maqsadda u yerda ekanliklarini bilish va u yerni tark etishlariga ishonch hosil qilish;

hojatxona, sport kiyinish xonalarini tozalash va saqlashda bolalar xatti-harakatlariga e’tibor berish va zo‘ravonlik sodir bo‘lganidan shubhalanganda darhol rahbariyatga xabar berish.

3.8. Ta’lim tashkilotida zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilish va ularga o‘z vaqtida javob qaytarish maqsadida maxsus komissiya tashkil etiladi.

Zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) quyidagi tarkibdan iborat bo‘ladi:

ta’lim tashkiloti direktori yoki uning o‘rinbosari;

ta’lim tashkiloti psixologi;

inspektor-psixolog;

pedagog-tarbiyachi va fan o‘qituvchilari;

kuzatuv kengashi va ota-onalar qo‘mitasi vakillari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari (zaruratga qarab);

ijtimoiy xodim yoki mahalla faollari.

3.9. Komissiyaning vazifalari:

bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini tezkor va xolisona tahlil qilish;

har bir holat bo‘yicha zarur profilaktika choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta’lim tashkilotining turli mutaxassislarini (tarbiyachi, tarbiyachi yordamchisi, o‘qituvchilar, psixolog, inspektor-psixolog, tibbiyot xodimi, direktorning mas’ul o‘rinbosari) jalb qilish orqali bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini tahlil qilish va hal qilishga yaxlit yondashuvni ta’minlash;

tarbiyaviy, intizomiy va profilaktika choralarini ko‘rish bo‘yicha xulosalar ishlab chiqarish.

IV-bob. Ta’lim tashkilotida zo‘ravonliknmg oldini olish chora-tadbirlari

4.1. Ta’lim tashkilotlarida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit yaratish va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui rahbariyat va pedagogik jamoa tomonidan bolalar, ota-onalar yoki ularning qonuniy vakillari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tashkiliy-boshqaruv tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Ular:

ta’lim tashkilotida ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish va bolalarni himoya qilish bo‘yicha yagona ish uslubi va qoidalarni ishlab chiqish;

ta’lim tashkilotida psixologik yordam xizmatini kuchaytirish va zo‘ravonlik holatlarining barcha ishtirokchilariga (zo‘ravonlikka uchragan bolalar, zo‘ravonlik holatlarini sodir etgan shaxslar va guvohlar) yordam ko‘rsatish uchun hamkor tashkilotlar va ular bilan o‘zaro hamkorlik qilish mexanizmlarini aniqlash;

ta’lim tashkilotidagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit monitoringini olib borish.

4.2. Profilaktik ishlar ta’lim tashkilotining barcha xodimlari, bolalar, ularning qonuniy vakillarini zo‘ravonlik va uning oqibatlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish, zo‘ravonlikka qarshi samarali kurash orqali amalga oshiriladi.

V-bob. Yakuniy qoidalar

5.1. Nizom talablarini bajarish Ta’lim tashkilotining har bir xodimi uchun majburiy bo‘lib, umumiy nazorati ta’lim tashkilotining direktori tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Ushbu nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gimnastika sport turlarini yanadarivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 23-dekabrdagi PQ–449-son,“2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 8-maydagi PQ–150-son qarorlari, shuningdek, “Toshkent shahrida boks va gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sportmaktablari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyundagi PF–94-son Farmoni, vazirlikning yillik ish rejasi ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari va tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni tashkiletish maqsadida buyuraman:

1. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamd tarbiyalanuvchilari o‘rtasida 2025-yilda ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy qo‘mita) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamd tarbiyalanuvchilari o‘rtasida 2025-yilda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni o‘tkazish reja-grafigi 2-ilovaga muvofiq;

“Yilning eng yaxshi tarbiyachisi – 2025” kasbiy ko‘rik-tanlovini tashkil etishva o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Tabiat bolalarni gohida” rasmlar tanlovini o‘tkazish va respublika ko‘rgazmasini tashkil etishto‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida

“Shaxmat festivali” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Gimnastikagailk qadam” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida“-VI Bolalar velomarafoni” tadbirini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 7-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida“ Jajji nurli yulduzlar” festivalini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida 2025-yilda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy qo‘mita (F.Boqiyev, S.Radjabov) maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni (keyingi o‘rinlarda – tadbirlar) o‘tkazish reja-grafigi asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga:

tadbirlarning tuman (shahar) va hududiy bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlash;

tadbirlarning barcha bosqichlarini ommaviy-axborot vositalarida keng yoritish;

tadbirlarning Respublika bosqichiga ishtirokchilarni yetib kelishlarinita’minlash;

tadbirlar yakunlari bo‘yicha axborotni o‘z vaqtida vazirlikka taqdim etishvazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur buyruqning 9-ilovasida ko‘rsatilgan sarf-xarajatlar vazirlikning 2025-yilgi markazlashgan tadbirlar bo‘yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida amalga oshirilishi belgilansin.

5. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruqning 9-ilovasi bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlarga asosan o‘rnatilgan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarni G‘aznachilik xizmati qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazsin hamda o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

7. Maktabgacha ta’limi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) Xo‘jalik bo‘limi (A.Shernazarov) bilan birgalikda tadbirlar yakuni bo‘yicha tovarlarni (ishlar, xizmatlar) hisobdan chiqarish uchun hisobotlarni besh kun muddatda Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga topshirsin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) tadbirlarni ommaviy-axborot vositalari,vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 17-mart,
86-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida 2025-yilda ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita
TARKIBI

T/r	F.I.SH.		Lavozimi
	F.Boqiyev	-	Vazir o‘rinbosari, *tashkiliy qo‘mita raisi*
	S.Radjabov	-	Vazir o‘rinbosari, *tashkiliy qo‘mita hamraisi*
	Sh.Muxamedov	-	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori, *tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
	H.O‘rinov	-	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktorining birinchi o‘rinbosari, *a’zo*
	L.Berdiyeva	-	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti direktori o‘rinbosari, *a’zo*
	M.Yuldashev	-	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*
	A.Kamalov	-	Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*
	I.Xoldarova	-	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*
	Z.Usanov	-	Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, *a’zo*
	G.Parpiyeva	-	Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga metodik xizmat ko‘rsatish va ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i, *a’zo*
	N. Ergashev	-	Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassis , *a’zo*
	D.Dustov	-	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *a’zo*

	M.Nazarova	-	Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *a'zo*
	R.Boboqulov	-	Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *a'zo*
	Z.Ataboyev	-	Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga metodik xizmat ko'rsatish va ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi yetakchi mutaxassisi, *mas'ul kotib*

Izoh: Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan *yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari o‘rtasida 2025-yilda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalarni o‘tkazish REJA-GRAFIGI

T/r	O‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar, festivallar va musobaqalar nomi	Ishtirokchilar	O‘tkazish muddati
1.	“Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2025” kasbiy ko‘rik-tanlovi	MTT pedagoglari	Mart-aprel
2.	“Shaxmat festivali” musobaqasi	MTT tarbiyalanuvchilari	Aprel-may
3.	“Gimnastikaga ilk qadam” musobaqasi	MTT tarbiyalanuvchilari	May-iyun
4.	“VI Bolalar velomarafoni” tadbiri	MTT tarbiyalanuvchilari	May
5.	“Tabiat bolalar nigohida” rasmlar tanlovi	MTT tarbiyalanuvchilari	Iyun-iyul
6.	“Jajji nurli yulduzlar” festivali	MTT tarbiyalanuvchilari	Avgust-sentabr

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
3-ILOVA

“Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2025” kasbiy ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2025” kasbiy ko‘rik-tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlari va tarbiyachilari lavozimida kamida ikki yil davomida faoliyat yuritayotgan, amaliy ish tajribasiga ega direktor o‘rinbosari va tarbiyachilar (keyingi o‘rinlarda – ishtirokchilar) o‘rtasida o‘tkaziladi.

3. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkaziladi:

“Eng yaxshi direktor o‘rinbosari”;

“Yilning eng fidokor tarbiyachisi”;

“Eng yaxshi ijodkor-ixtirochi tarbiyachi”;

“Innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llaydigan eng yaxshi tarbiyachi”;

“Eng yaxshi eko-targ‘ibotchi tarbiyachi”;

“Yangi O‘zbekistonda yangi avlod bolalarini ma’naviy kamolotga yetaklovchi eng yaxshi tarbiyachi”.

Bunda, “Eng yaxshi direktor o‘rinbosari” nominatsiyasida oliy ma’lumotli direktor o‘rinbosarilar, “Yilning eng fidokor tarbiyachisi” nominatsiyasida oliy ma’lumotli tarbiyachilar, “Eng yaxshi ijodkor-ixtirochi tarbiyachi”, “Innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llaydigan eng yaxshi tarbiyachi”, “Eng yaxshi eko-targ‘botchi tarbiyachi” va “Yangi O‘zbekistonda yangi avlod bolalarini ma’naviy kamolotga yetaklovchi eng yaxshi tarbiyachi” nominatsiyalarida oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan (tugallanmagan oliy ma’lumotlilar bundan mustasno) tarbiyachilar ishtirok etadi.

4. Oldingi yillarda tashkil etilgan tanlovning respublika final bosqichida I, II va III-o‘rinni egallagan g‘oliblar mazkur tanlovda qayta ishtirok etish huquqiga ega emas.

5. Tanlovning maqsadi quyidagilardan iborat:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan yuqori malakali direktor o‘rinbosari va tarbiyachilarni aniqlash hamda ularni rag‘batlantirish;

pedagogik mahorati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish, pedagogik faoliyatning nufuzini yanada oshirish, kasbiy faoliyatida ijodkorlik va sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

direktor o‘rinbosari va tarbiyachilarning intellektual va professional salohiyatni oshirish hamda bu boradagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, tashabbuskorlik va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish.

6. Tanlov har yili mart-aprel oylarida quyidagi bosqichlar va muddatlarda o‘tkaziladi:

tuman (shahar) saralash bosqichi – 24-31-mart kunlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlari va tarbiyachilari o‘rtasida;

hududiy saralash bosqichi – 7-11-aprel kunlari tuman (shahar) saralash bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida;

respublika final bosqichi – 24-25-aprel kunlari hududiy saralash bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida.

2-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

1-§. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash hamda respublika final bosqichlarini o‘tkazish tartibi

7. Tanlov Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinda – Tashkiliy qo‘mita) tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tarkibi (keyingi o‘rinda – Ishchi guruh) tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va

Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbarlari boshchiligida tashkil etiladi.

8. Tanlovning:

tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari – tegishliligi bo'yicha tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari Ishchi guruhlari tomonidan;

respublika final bosqichi – Tashkiliy qo'mita tomonidan o'tkaziladi.

9. Hakamlar hay'ati tarkibi har bir nominatsiya bo'yicha 5-7 nafardan iborat tarkibda shaklantiriladi.

Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari uchun hakamlar hay'ati tarkibi tegishliligi bo'yicha tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari ishchi guruhlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda, hakamlar hay'ati tarkibi har bir nominatsiya bo'yicha ilg'or rahbar, professor-o'qituvchi, pedagog, tarbiyachilardan iborat bodishi shart.

Tanlovning bir bosqichida ishtirok etgan hakamlar hay'ati a'zolari ushbu tanlovning boshqa bosqichlaridagi hakamlar hay'ati tarkibida qatnashishi mumkin emas.

Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari hakamlar hay'ati tarkibiga kiritilgan pedagog va tarbiyachilar o'zlari faoliyat yuritadigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tanlovda ishtirok etayotgan direktor o'rinbosari yoki tarbiyachisini baholashi taqiqlanadi.

10. Tashkiliy qo'mita tomonidan vazirlik rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon beriladi.

11. Tanlovning tuman (shahar) saralash bosqichida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktor o'rinbosari va tarbiyachilari ishtirok etish mumkin, ishtirokchilar soni cheklanmagan.

Tanlovning hududiy saralash bosqichida tuman (shahar) saralash bosqichining har bir nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan direktor o'rinbosari va tarbiyachilari ishtirok etadi.

Tanlovning respublika final bosqichida hududiy saralash bosqichining har bir nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan direktor o'rinbosari va tarbiyachilari ishtirok etadi.

12. Tanlovning tuman (shahar) saralash bosqichida ishtirok etish istagini bildirgan direktor o‘rinbosari va tarbiyachilar tanlovning tuman (shahar) saralash bosqichlari ishchi guruhlariga o‘zlari faoliyat yuritayotgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi tomonidan nomzodni tavsiya etish to‘g‘risidagi qarorini taqdim etish orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

13. Ro‘yxatdan o‘tgan nomzodlar haqidagi barcha ma’lumotlar tuman (shahar) saralash bosqichlari ishchi guruhlari tomonidan ikki ish kunida tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga taqdim etiladi.

14. Tanlovda ishtirok etish uchun direktor o‘rinbosari va tarbiyachilarning boshqacha tarzda ro‘yxatdan o‘tishi yoki saralash bosqichida ishtirok etmasdan keyingi bosqichga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2-§. Tanlov shartlari va baholash tartibi

15. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari quyidagi shartlar asosida o‘tkaziladi:

Birinchi shart — test topshirig‘i:

Ishtirokchilarga tanlov o‘tkaziladigan nominatsiya (yo‘nalish), metodika va maktabgacha ta’lim sohasi bo‘yicha 30 tadan test savollari beriladi.

Har bir savol uchun 1 (bir) daqiqa vaqt beriladi.

Test savollarining har bir to‘g‘ri javobi 1 (bir) ball bilan baholanadi va umumiy 30 ballni tashkil etadi.

Birinchi shart natijalariga ko‘ra 20 va undan yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar ikkinchi shartda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi;

Test sinovlari tasdiqlangan reja bo‘yicha, Tashkiliy qo‘mita tomonidan tayyorlangan materiallar asosida, onlayn tarzda o‘tkaziladi.

Test sinovlari materiallari Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tomonidan tayyorlanadi.

Ikkinchi shart – ishtirokchi faoliyatiga doir videorolik tayyor-

lash:

Ishtirokchi tomonidan qatnashayotgan nominatsiyasi bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotidagi kasbiy faoliyatiga oid foto-lavhalar, mashg‘ulotlar jarayoniga oid video-lavhalar, ommalashtirilgan metodik ishlanmalari hamda erishgan yutuqlarini aks ettirilgan 3 daqiqalik videorolik tayyorlanadi.

Videorolik 30 ballik mezon asosida baholanadi.

Tayyorlangan videorolik tanlov o‘tkazilishidan kamida 2 kun oldin ishchi guruhga taqdim etiladi.

Ishchi guruh ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan videoroliklarni nominatsiyalar bo‘yicha saralaydi hamda hakamlar hay’atiga ko‘rib chiqish va baholash uchun taqdim etadi.

Ikkita shart natijalariga ko‘ra 40 va undan yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar tanlovning uchinchi shartida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladilar.

Uchinchi shart:

a) “Eng yaxshi direktor o‘rinbosari” nominatsiyasi uchun — kasbiy faoliyatga doir seminar o‘tkazish:

Uchinchi shartga o‘tgan ishtirokchilar tomonidan seminar mavzulari qur’a tashlash yo‘li bilan tanlab olinadi.

Bunda, tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari ishchi guruhlari tomonidan seminar mavzulari “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida haftalik mavzular orasidan tanlab olinadi.

Ishtirokchilarga seminar o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish uchun 1 kun vaqt beriladi.

Ishtirokchilar ularga tushgan mavzular asosida tanlovning boshqa ishtirokchilariga seminar o‘tkazadilar.

Seminarlar hakamlar hay’ati tomonidan kuzatiladi va baholanadi.

Seminar o‘tkazish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

Seminar 40 ballik mezon asosida baholanadi.

b) Boshqa nominatsiyalar uchun – mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash:

Uchinchi shartga o‘tgan ishtirokchilar tomonidan ochiq mashg‘ulot ishlanmasining mavzulari qur’a tashlash yo‘li bilan tanlab olinadi.

Bunda, tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash

bosqichlari ishchi guruhlari tomonidan mashg‘ulot ishlanmalari mavzulari “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida haftalik mavzular orasidan tanlab olinadi.

Ishtirokchilarga ochiq mashg‘ulot ishlanmasini tayyorlash uchun 1 kun vaqt beriladi.

Ishtirokchilar tomonidan tayyorlangan ochiq mashg‘ulot ishlanmasi yuzasidan hakamlar hay’atiga taqdimot o‘tkaziladi.

Taqdimot o‘tkazish uchun 5 daqiqa beriladi.

Mashg‘ulot ishlanmasi 40 ballik mezon asosida baholanadi.

16. Tanlovning Respublika final bosqichi quyidagi shartlar asosida o‘tkaziladi:

Birinchi shart — maktabgacha ta’lim va tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan loyiha taqdimoti:

Ishtirokchilar tomonidan tegishli nominatsiyalar bo‘yicha maktabgacha ta’lim va tarbiya sifatini oshirishda (ta’lim mazmuni, ta’limda metodikani qo‘llash, ta’limga innovatsiyalarni joriy etish, ta’lim sifatining natijaviyligi va h.k) mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan aniq yangi takliflar to‘g‘risida loyiha taqdimoti tayyorlanadi.

Loyiha taqdimoti 30 ballik mezon asosida baholanadi.

Ikkinchi shart — mashg‘ulot ishlanmasini tayyorlash:

Ishtirokchilar tomonidan tegishli nominatsiyalar bo‘yicha tanlangan mavzu yuzasidan mashg‘ulot ishlanmasi tayyorlanadi.

Bunda, Tashkiliy qo‘mita tomonidan mashg‘ulot ishlanmalari mavzulari “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida haftalik mavzular orasidan tanlab olinadi.

Mashg‘ulot ishlanmasini yozish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi.

Mashg‘ulot ishlanmasining asosiy mazmuni 5 daqiqa ichida tushuntirib beriladi;

Mashg‘ulot ishlanmasi 40 ballik mezon asosida baholanadi.

Uchinchi shart — test topshirig‘i:

Ishtirokchilarga tanlov o‘tkaziladigan nominatsiya, metodika va maktabgacha ta’lim sohasi bo‘yicha 30 tadan test savollari beriladi.

Har bir savol uchun 1 (bir) daqiqa vaqt beriladi.

Test savollarining har bir to‘g‘ri javobi 1 (bir) ball bilan baholanadi va umumiy 30 ballni tashkil etadi.

Test sinovlari Tashkiliy qo‘mita tomonidan tayyorlangan mate-

riallar asosida onlayn tarzda o‘tkaziladi.

Test sinovlari materiallari Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tomonidan tayyorlanadi.

17. Barcha bosqichlardagi shartlar mazkur nizomning 2-ilovasida keltirilgan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Ishtirokchilar to‘plagan ballar teng kelib qolgan taqdirda ularning kasbiy faoliyati davomida o‘z ustida ishlab, shaxsiy rivojlanishida ko‘rsatgan natijasiga ko‘ra ishtirokchilarga qo‘shimcha ball beriladi. Qo‘shimcha ballar quyidagi tartibda beriladi:

hududiy (viloyat) darajadagi har bir yutuq uchun — 1 ball;

respublika darajasidagi har bir yutuq uchun — 2 ball;

xalqaro darajadagi har bir yutuq uchun — 3 ball;

Bunda, har bir ishtirokchi tomonidan erishilgan yutuqlar aks ettirilgan asoslovchi ma’lumot va hujjatlar (mutasaddi organlar tomonidan taqdim etilgan diplom, tilni bilish va turli xil grant sertifikati va hokazo) elektron tarzda taqdim etiladi, berilgan ma’lumot va hujjatlarning haqqoniyligiga ularni taqdim etgan ishtirokchi shaxsan javobgar hisoblanadi.

18. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash hamda respublika final bosqichlari ishtirokchilari to‘plagan ballar tegishli hakamlar hay’ati tomonidan hisoblanadi.

Ishtirokchilarning umumiy to‘plagan ballar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishliligi bo‘yicha ishchi guruhlar va tashkiliy qo‘mitaga taqdim etiladi.

19. Tanlovda ishtirokchilarining barchasi o‘zaro teng huquqli bo‘lib, ushbu Nizomning 15-bandida keltirilgan mezonlardan tashqari boshqa ustunlik yoki imtiyozlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

20. Tanlov ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik vakillari kuzatuvi ostida oshkoralik tamoyili asosida o‘tkaziladi.

3-§. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash hamda respublika final bosqichlari g‘oliblarini aniqlash

21. Tanlovning tuman (shahar), hududiy saralash va respublika final bosqichlarida uchta shart bo‘yicha ishtirokchilarning to‘plagan ballari qo‘shilib, har bir ishtirokchining yakuniy to‘plagan

bali e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari ballar yig'indisi yakuni bo'yicha aniqlanadi.

22. Ikki va undan ortiq ishtirokchilarning to'plagan yakuniy ballari teng bo'lgan hollarda, mazkur Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan mezonlar asosida direktor o'rinbosarlik yoki tarbiyachilik faoliyati davomida shaxsiy rivojlanishida erishgan natijalari bo'yicha qayta ko'rib chiqiladi.

23. Tanlovning tuman (shahar) saralash bosqichida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar tanlovning hududiy saralash bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani, hududiy saralash bosqichida 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar tanlovning respublika final bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritadilar.

24. Tanlovning tuman (shahar) saralash bosqichi g'oliblari tuman (shahar) saralash bosqichi ishchi guruhining umumiy yig'ilishi bayonnomasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Hududiy saralash bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritgan ishtirokchilarning ma'lumotlari hududiy saralash bosqichi ishchi guruhiga taqdim etiladi.

Tanlovning hududiy saralash bosqichi g'oliblari hududiy saralash bosqichi ishchi guruhlari umumiy yig'ilishi bayonnomasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Respublika final bosqichida ishtirok etishga yo'llanmani qo'lga kiritgan ishtirokchilarning ma'lumotlari Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

Tanlovning respublika final bosqichining yakuniy natijalari hamda g'oliblar ro'yxati Tashkiliy qo'mita qarori bilan tasdiqlanadi.

3-bob. Tanlov g'oliblari va sovrindorlarini taqdirlash

25. Barcha yo'nalishlar bo'yicha tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar g'olib, 2- va 3-o'rinni egallagan ishtirokchilar sovrindorlar hamda respublika final bosqichida 1-, 2- va 3-o'rinlarni egallagan ishtirokchilar g'olib deb hisoblanadi.

26. Barcha nominatsiyalar bo'yicha tanlovning g'olib va sovrindorlari:

a) tuman (shahar) saralash bosqichida:

1-, 2- va 3-o‘rin uchun — faxriy yorliq, qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar, kasaba uyushmalari va homiylarni jalb etgan holda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi;

b) hududiy saralash bosqichida:

1-, 2- va 3-o‘rin uchun — faxriy yorliq, qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar, kasaba uyushmalari va homiylarni jalb etgan holda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

27. Tanlovning respublika final bosqichi g‘oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadilar:

har bir nominatsiya bo‘yicha bir nafardan 1-o‘rinni egallagan direktor o‘rinbosari yoki tarbiyachilar o‘rnatilgan tartibda Vazirlikning “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” 1 darajali diplomi, qimmat baho sovg‘alar va bazaviy hisoblash miqdorining 35 barobari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan;

har bir nominatsiya bo‘yicha bir nafardan 2 – o‘rinni egallagan direktor o‘rinbosari yoki tarbiyachilar Vazirlikning “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” II darajali diplomi, qimmat baho sovg‘alar va bazaviy hisoblash miqdorining 25 barobari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan;

har bir nominatsiya bo‘yicha bir nafardan 3 – o‘rinni egallagan direktor o‘rinbosari yoki tarbiyachilar Vazirlikning “Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” III darajali diplomi, qimmat baho sovg‘alar va bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

28. Respublika bosqichi g‘oliblari hududiy kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sihatgohlarga yo‘llanmalar berishga tavsiya etiladi.

29. Tanlovning respublika final bosqichida “Eng yaxshi ijodkor- ixtirochi tarbiyachi’’, “Innovation va axborot texnologiyalarini qo‘llaydigan eng yaxshi tarbiyachi”, “Eng yaxshi eko-targ‘ibotchi tarbiyachi” va “Yangi O‘zbekistonda yangi avlod bolalarini ma’naviy kamolotga yetaklovchi eng yaxshi tarbiyachi” nominatsiyalari bo‘yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni egallagan oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan (o‘rta maxsus ma’lumotli) g‘oliblar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tikiash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son

qarori hamda “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 7-iyundagi 468-son qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant asosida o‘qishga kirish imtiyoziga ega bo‘ladilar.

30. Tanlovning respublika bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritmagan ishtirokchilar bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida qimmat baho sovg‘alar bilan taqdirlanadilar.

31. Tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan direktor o‘rinbosari va tarbiyachilarning ish tajribasi respublika va hududlar miqyosida ommalashtiriladi hamda ular **“O‘z hududining namunali pedagogi”** sifatida e’tirof etiladi.

32. Tanlov g‘oliblari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan davlat mukofotlariga tavsiya etilishi mumkin.

4-bob. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi

33. Tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar natijalar e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun davomida apellyatsiya komissiyalariga apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega.

Apellyatsiya shikoyati besh ish kun ichida ko‘rib chiqiladi.

34. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari apellyatsiya komissiyalari tarkibi tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari tomonidan, respublika final bosqichi apellyatsiya komissiyasi — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tuziladi.

Apellyatsiya komissiyalari tarkibiga tanlovning Tashkiliy qo‘mitasi va ishchi guruhlari faoliyatida hamda hakamlar hay’ati tarkibida ishtirok etmagan shaxslar kiritiladi.

35. Apellyatsiya komissiyalari ishtirokchilarning apellyatsiya

shikoyatini ko‘rib chiqib, natijasi bo‘yicha arizani qanoatlantirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

36. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

37. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

“Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2025”
kasbiy ko‘rik-tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomga
ILOVA

BAHOLASH MEZONLARI
I. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlarida barcha nominatsiyalar bo‘yicha ishtirokchilarning videoroliklarini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 balldan 5 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball — 20.

Hakamlar hay’ati tanlovga taqdim etilgan videorolik ishlarini quyidagi mezonlar bo‘yicha baholaydilar:

- ✓ tanlovdagi shartda qo‘yilgan mavzuning ochib berish darajasi;
- ✓ videoning o‘ziga xosligi (g‘oyaning yangiligi);
- ✓ axborot mazmuni (materialni taqdim etish chuqurligi, mantiqiy izchillik);
- ✓ ovozli hamrohlik, video effektlar mavjudligi;
- ✓ talab etilgan vaqt davomiyligiga rioya qilinganligi;
- ✓ taqsimlanish quyidagi mezonlariga rioya qilinishi tavsiya etiladi: *kirish qismi-10%, maqsad-10%, asosiy faoliyatiga old qismi-50%, yutuqlari aks etgan qismi-20%, yakunlovchi qismi-10%.*

T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Nominatsiyasini ochib berish darajasi.	5		
2.	Videorolikning o‘ziga xosligi (g‘oyaning yangiligi).	7		
3.	Axborot mazmuni (materialni chuqur taqdim etilishi, mantiqiy izchillik).	8		
4.	Ovoz hamrohligi, video effektlar mavjudligi.	5		

5.	Belgilangan vaqt davomiyligiga rioya qilinganligi	5		
Jami:		**30**		

Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan baholagan sana: "___ "_____ 2025-yil.

Hakamlar hay'ati a'zosining F.I.SH. _____

(imzo)

II. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Eng yaxshi direktor o‘rinbosari” nominatsiya bo‘yicha seminarlarni baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball — 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tomonidan o‘tkazilgan seminarni quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ seminarga tayyorgarlik jarayonida talab va ehtiyojlarning o‘rganilganligi;
- ✓ seminar maqsadining ishtirokchilar (auditoriya)ga mosligi;
- ✓ seminar dizayni: kirish, ishtirokchilar tanishuvi va ularning umidlari, ish tartibini ishlab chiqish, amalga oshirilgan ishlarni yakuniy baholash kabi qismlarning mavjudligi; ishtirokchining seminarni olib borish mahorati (nutqi, auditoriya bilan muloqoti va ularni faollashtirish yo‘llari, mavzuni yoritish usul va vositalaridan foydalanishi);
- ✓ seminar yakunidagi fidbek natijalari.

T/r	Mezon	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Seminarga tayyorgarlik jarayonida talablar va ehtiyojlarning o‘rganilganligi darajasi.	8		
2.	Seminar maqsadining ishtirokchilar (auditoriya)ga mosligi.	8		
3.	Seminar dizayni: kirish, ishtirokchilar tanishuvi va ularning umidlari, ish tartibini ishlab chiqish, amalga oshirilgan ishlarni yakuniy baholash kabi qismlarning mavjudligi.	8		
4.	Ishtirokchining seminarni olib borish mahorati (nutqi, auditoriya bilan muloqoti va ularni faollashtirish yo‘llari, mavzuni yoritish usul va vositalaridan foydalanishi).	8		
5.	Seminar yakunidagi fidbek natijalari va belgilangan vaqt davomiyligiga rioya qilinganligi.	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana:

“___”_____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. _____ _____

(imzo)

III. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Eng yaxshi fidokor tarbiyachi” nominatsiya bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball – 40;

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tayyorlagan mashg‘ulot quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ bolaning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni;
- ✓ bola yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;
- ✓ mashg‘ulot materialining tarbiyaviy ta’siri;
- ✓ mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ taqdimotini sifatli tashkil etish.

T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, hikoyalarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Bolalarda vatanparvarlik, fidokorlik kabi xislatlarni rivojlantirishga qaratilganligi	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi)	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana:

“___”_____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. _____ _____

(imzo)

IV. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Eng yaxshi ijodkor-ixtirochi tarbiyachi” nominatsiya bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball — 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tomonidan tayyorlangan mashg‘ulotni quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ bolaning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni;
- ✓ bola yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;
- ✓ mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ taqdimotini sifatli tashkil etish.

T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, hikoyalarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Bolalarda ijodkorlik, ixtirochilik kabi xislatlarni rivojlantirishga qaratilganligi.	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi)	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana: “___” _____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. _____

(imzo)

V. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo‘llaydigan eng yaxshi tarbiyachi” nominatsiyasi bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball - 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tomonidan tayyorlangan mashg‘ulotni quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ bolaning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni;
- ✓ bola yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;
- ✓ mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan innovatsiya va axborot texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ taqdimotini sifatli tashkil etish.

T/r	Mezon	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, hikoyalarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarning mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan innovatsiya va axborot texnologiyalarining mavjudligi.	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi).	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana: “___” _____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. ——— *(imzo)*

VI. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Eng yaxshi eko-targ‘ibotchi tarbiyachi” nominatsiya bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball — 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tomonidan tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ bolaning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni;
- ✓ bola yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;
- ✓ mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirishga qaratilganligi;
- ✓ taqdimotini sifatli tashkil etish.

T/r	Mezo n	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, hikoyalarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirishga qaratilganligi	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi)	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana:
“___” _____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. _____
(imzo)

VII. Tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichida “Yangi O‘zbekistonda yangi avlod bolalarini ma’naviy kamolotga yetaklovchi eng yaxshi tarbiyachi” nominatsiya bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin,

Jami maksimal ball — 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tomonidan tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ bolaning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni;
- ✓ bola yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;
- ✓ mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi;
- ✓ bolalarni milliy urf-odatlar, qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilganligi;
- ✓ taqdimotini sifatli tashkil etish.

T/r	Mezon	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, milliy ertaklarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Bolalarni milliy urf-odatlar, qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilganligi.	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi)	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana: “___” _____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. ———— *(imzo)*

VIII. Respublika final bosqichida barcha nominatsiyalar bo‘yicha loyiha taqdimotini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan .6 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball- 30.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tayyorlagan loyiha taqdimotini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- ✓ tuzilishi;
- ✓ ko‘rgazma qurollardan foydalanganligi;
- ✓ taqdimot dizayni va sozlamalari;
- ✓ nominatsiya mavzusiga mosligi va samaradorligi;
- ✓ taqdimot talablariga mos kelishi.

T/ r	Mezon	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	**Tuzilishi.** *slaydlar soni mos kelishi (8 ta slayd mazmuni va nutq davomiyligi (nutq uchun 5 daqiqadan ortiq foydalanmaslik tavsiya etiladi);* *sarlavhasi va slayd xulosalari mavjudligi.*	6		
2.	**Ko‘rgazma.** *yaxshi sifatli illyustratsiyalar, aniq tasvirlar va matnni o‘qish osonligi;* *ko‘rgazmali qurollardan foydalanilganligi;* *ma’lumotlar (jadvallar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar).*	6		
3.	**Dizayn va sozlamalar**. *Slaydlar mavzuga muvofiq tuzilgan, tarkibni idrok etishga xalaqit bermaydi, barcha taqdimot slaydlari uchun bir xil shablon ishlatilganligi.*	4		
4.	**Mazmuni.** *taqdimotda asosiy bosqichlarning aks ettirilishi (muammo, maqsad, gipoteza, amaliy ishlar, xulosalar, manbalar);* *nominatsiya yo‘nalishiga mos to‘liq, tushunarli ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi;* *imlo va savodxonlik qoidalariga mosligi.*	7		

5.	**Taqdimot talablari.** *ishtirokchi mazmunini ravon va aniq ifodalashi;* *savollarga erkin va to‘g‘ri javob berishi;* *belgilangan vaqt davomiyligiga rioya qilinganligi.*	7		
Jami:		**30**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana:
“___” _____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. _____

(imzo)

IX. Respublika final bosqichida barcha nominatsiyalar bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmalarini baholash mezonlari

Ishtirokchilar har bir mezon bo‘yicha 0 dan 8 ballgacha to‘plashlari mumkin.

Jami maksimal ball — 40.

Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchi tayyorlagan loyiha taqdimotini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

bolalarning yoshiga mos keladigan mashg‘ulot mazmuni va yoshiga mos rivojlanishini ta’minlaydigan yangi elementlarning mavjudligi;

mashg‘ulot mazmuni, qo‘yilgan maqsadlarga mosligi;

tarbiyaviy muammolarni hal qilish nuqtayi nazaridan yangi usul va vositalarini tanlashning maqsadga muvofiqligi;

tarbiyalanuvchilarni faolligini kuchaytirish yo‘llari mavjudligi

T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Ishtirokchi olgan ball	Izoh
1.	Mashg‘ulot ishlanmasini tartib bilan ishlab chiqilganligi, mavzuga oid bolalarga mos ma’lumotlar, she’rlar, milliy ertaklarning mavjudligi.	8		
2.	Mavzuga mos interaktiv o‘yin texnologiyalarining mavjudligi.	8		
3.	Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishi.	8		
4.	Bolalarni vatanparvarlik, fidokorlik ruhida tarbiyalash, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, odob-axloqni o‘rgatishga, bolalarning ijodkorlik-ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi.	8		
5.	Tayyorlangan mashg‘ulot ishlanmasini taqdimoti (ishtirokchining nutqi ravonligi, mashg‘ulot ishlanmasi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishni aniq tushuntirib bera olishi).	8		
Jami:		**40**		

Hakamlar hay’ati a’zosi tomonidan baholagan sana: “___ ”_____ 2025-yil.

Hakamlar hay’ati a’zosining F.I.SH. ———————— ————————
(imzo)

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
6-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Tabiat **bolalar nigohida” rasmlar tanlovini o‘tkazish va respublika ko‘rgazmasini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Tabiat bolalar nigohida” rasmlar tanlovini o‘tkazish va respublika ko‘rgazmasini (keyingi o‘rinda – tanlov va ko‘rgazma) tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6-7 yoshda bo‘lgan tarbiyalanuvchilari ishtirok etishi (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchilar) mumkin.

2-bob. Tanlov va ko‘rgazmaning maqsadi va vazifalari

3. Tanlov va ko‘rgazmaning asosiy maqsadi:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda badiiy estetik didni shakllantirish.

Tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbatni oshirish va ekologik madaniyatni shakllantirish.

Bolalarni atrof-muhitni asrash, uni go‘zallik bilan idrok etish hamda tabiat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatish.

Yosh rassomlarning iste’dodini kashf etish va ularni qo‘llab-quvvatlash.

4. Tanlov va ko‘rgazmaning vazifalari:

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – bolalarning tabiat manzaralarini, jonivor va o‘simlik olamini kuzatish va tasvirlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ekologik ong va madaniyatni oshirish – bolalar o‘rtasida tabi-

atni sevish, unga mehribonlik va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish g‘oyalarini targ‘ib qilish.

Badiiy ifoda vositalaridan foydalanish – bolalarni ranglar, shakllar va kompozitsiya bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Iqtidorli bolalarni aniqlash va rag‘batlantirish – bolalar o‘rtasida iqtidorli yosh rassomlarni aniqlash va ularni respublika miqyosida qo‘llab-quvvatlash.

Ijtimoiy faollikni oshirish – bolalarning ishtirokchilik madaniyatini rivojlantirish, ularga o‘z fikrlarini ijodiy ifoda etish imkoniyatini yaratish.

Ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik – bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ota-onalar va pedagoglarni jalb etish.

3-bob. Tanlov va ko‘rgazmaga yuboriladigan rasmlarga qo‘yiladigan texnik talablar

5. Tanlovga taqdim etiladigan rasmlar quyidagi texnik talablar asosida qabul qilinadi:

Rasmlarning hajmi va shakli A3 (297×420 mm) yoki A4 (210×297 mm) formatda bo‘lishi kerak. Rasmlarni boshqa o‘lchamlarda topshirish mumkin emas.

Rasmlar qog‘oz, karton yoki kanvas asosida chizilishi mumkin. Quyidagi texnikalardan foydalanishga ruxsat beriladi:

Akvarel bo‘yoqlari

Guash bo‘yoqlari

Pastel (quruq yoki yog‘li)

Rangli qalamlar

Flomasterlar

Aralash texnika (bir nechta uslubni qo‘shish mumkin, lekin kollaj va 3D elementlarni ishlatish mumkin emas)

6. Rasmlar tanlovning “Tabiat bolalar nigohida” mavzusiga mos bo‘lishi va ularda tabiat manzaralari, o‘simlik va hayvonot olami, ekologik mavzular aks ettirilishi lozim.

Ishlar bolaning o‘z tasavvuridan kelib chiqib ijodiy ishlangan bo‘lishi kerak (nusxa ko‘chirish, boshqa asarlardan ko‘chirib chizish qat’iyan man etiladi).

Har bir rasm muallifning shaxsiy ijod mahsuli bo‘lishi shart. Kompyuter grafikasi yoki raqamli tasvirlar qabul qilinmaydi.

7. Ishtirokchi haqidagi ma’lumot to‘liq, tushunarli tarzda mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan anketa shakli bo‘yicha to‘ldirilishi hamda har bir rasmning orqa tomoniga yopishtirilgan holda taqdim etilishi shart. Anketasiz taqdim etilgan ishlar baholanmaydi

Qog‘ozning rasm chizilgan tomoniga hech narsa yopishtirilmasligi va yozilmasligi kerak.

8. Ishlar toza, bukilmagan, buzilmagan holda topshirilishi kerak.

Agar rasm ramkaga joylashtirilsa, u shisha yoki boshqa qattiq himoya qoplamasiz bo‘lishi lozim.

9. Bir ishtirokchi tanlovda 2 dan ortiq ish bilan qatnasha olmaydi.

10. Taqdim etilgan ish muallifga qaytarilmaydi.

4-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

11. Tanlov to‘rt bosqichda o‘tkaziladi va har bir bosqichning bosh tashkilotchilari bo‘ladi:

Mahalliy bosqich – maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

Hududiy bosqich – tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari;

Viloyat bosqichi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari;

Respublika bosqichi – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi.

14. Har bir bosqichda bosh tashkilotchilar tomonidan tanlovni tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha tegishli tashkiliy qo‘mitalar tuziladi.

15. Tashkiliy qo‘mitalar tomonidan tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

tanlov o‘tkazilishi va ko‘rgazma tashkil etilish uchun malakali mutaxassislar jalb qilish;

quyi bosqichdagi tashkiliy qo‘mitalar tomonidan tanlovning o‘tkazilishi yuzasidan hisobotlarni qabul qilish (tanlov o‘tgandan

keyin besh ish kuni ichida);

g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ularning ijodiy ishlarini umumlashtirish.

16. Tanlovning Maktabgacha ta’lim tashkiloti bosqichi har yili may oyining birinchi o‘n kunligida tashkil etilib, tashkilot ishchi guruhi o‘g‘il va qiz bolalar tomonidan chizilgan rasmlar orasidan bittadan g‘olib aniqlab olinadi;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida g‘olib deb topilgan o‘g‘il va qiz bolalarning rasmlari tanlovning tuman (shahar) bosqichiga yuboriladi

tuman (shahar) bosqichi har yili may oyining ikkinchi o‘n kunligida tashkil etilib, ijodiy ishlar hakamlar hay’ati tomonidan mazkur nizomning 6-bandida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Tanlovga kelib tushgan ishlar yig‘ilib, ko‘rgazma tashkil etiladi.

Ko‘rgazma bo‘lib o‘tadigan kun va joy Ishchi guruh tomonidan belgilanadi va oldindan e’lon qilinadi.

Ko‘rgazma va taqdirlash marosimi bir kunda bo‘lib o‘tadi.

Barcha ishtirokchilar ko‘rgazmada qatnashish imkoniyatiga ega.

Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ishlar 2-ilovada ko‘rsatilgan jadval asosida hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Hududiy bosqich har yili may oyining uchinchi o‘n kunligida tashkil etilib, tuman (shahar) bosqichida g‘olib deb topilgan o‘g‘il va qiz bola tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiladi;

Hududiy bosqichga chiqqan o‘g‘il va qiz bolalar mazkur nizomning 6-bandida ko‘rsatilgan talablar asosida rasm chizib ko‘rsatadilar.

Rasm chizish uchun har bir ishtirokchiga 60 daqiqadan vaqt beriladi.

Ishtirokchilar tomonidan chizilgan rasmlardan hamda ular tomonidan taqdim etilgan ijodiy ishlardan iborat ko‘rgazma tashkil etiladi hamda 2-ilovada ko‘rsatilgan jadval asosida hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Respublika final bosqichi iyun oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi. Tanlovning respublika final bosqichida hududiy saralash bosqichidan g‘olib bo‘lgan 28 nafar o‘g‘il va qiz bolalar (tarbiyalanuvchilar) o‘rtasida o‘tkaziladi.

Viloyat saralash bosqichida g‘olib bo‘lgan 28 nafar o‘g‘il va qiz bolalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilangan manzilda, mazkur nizomning 6-bandida ko‘rsatilgan talablar asosida rasm chizadilar.

Rasm chizish uchun har bir ishtirokchiga 60 daqiqadan vaqt beriladi.

Ishtirokchilar tomonidan chizilgan rasmlar hamda ular tomonidan taqdim etilgan ijodiy ishlardan iborat ko‘rgazma tashkil etiladi va 2-ilovada ko‘rsatilgan jadval asosida hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Ko‘rgazma va taqdirlash marosimi bir kunda bo‘lib o‘tadi.

Respublika final bosqichi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkiliy qo‘mitasi tomonidan o‘tkaziladi.

17. Tanlovning har bir bosqichiga kelib tushgan ijodiy ishlar 2-ilovada ko‘rsatilgan jadval asosida, tegishli tashkiliy qo‘mita hamda hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Hakamlar hay’ati professional rassomlar, tasviriy san’at yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, adabiyot va san’at sohalari vakillaridan tashkil topadi. Hakamlar hay’ati qarori qayta ko‘rib chiqilmaydi va qo‘yilgan baholar bo‘yicha izoh berilmaydi.

18. Tanlovning tuman (shahar) va viloyat saralash bosqichlari uchun hakamlar hay’ati tarkibi tegishliligi bo‘yicha tanlovning tuman (shahar) va viloyatlar boshqarma boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

19. Tanlovning bir bosqichida ishtirok etgan hakamlar hay’ati a’zolari ushbu tanlovning boshqa bosqichlaridagi hakamlar hay’ati tarkibida qatnashishi man etiladi.

20. Tashkiliy qo‘mita tomonidan vazirlik rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e’lon beriladi.

5-bob. Tanlov g‘oliblari va sovrindorlarini taqdirlash

21. Musobaqa g‘oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Birinchi – maktabgacha ta’lim tashkiloti bosqichi g‘oliblari (o‘g‘il va qiz bolalar) ta’lim tashkilotlarining I-, II- va III-darajali diplomlari hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Ikkinchi – tuman (shahar) bosqichi g‘oliblari (o‘g‘il va qiz bola)

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarining I-, II- va III-darajali diplomlari hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Uchinchi – viloyat bosqichi g‘oliblari (o‘g‘il va qiz bola) hududiy boshqarmalarning I-, II- va III-darajali diplomlari hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

To‘rtinchi – respublika bosqichining g‘oliblari (o‘g‘il va qiz bola) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining I-, II- va III-darajali diplomlari hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

22. Ishtirokchilarni tanlovga tayyorlagan tarbiyachilar tashakkurnoma bilan taqdirlanadilar.

23. Tanlovning barcha ishtirokchilari tanlov ishtirokchisining sertifikatiga (elektron shaklda) ega bo‘ladilar.

24. Tanlov jarayonlari va g‘oliblar haqidagi ma’lumotlar Vazirlikning veb-sayti (www.uzedu.uz) hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e’lon qilinadi.

25. Tanlov natijalariga ko‘ra, eng yaxshi ijodiy ishlarning elektron katalogi yaratiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

26. Ushbu nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

27. Mazkur nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari t
arbiyalanuvchilari o‘rtasida “
Tabiat bolalar nigohida”
rasmlar tanlovini tashkil etish va
o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

“Tabiat bolalar nigohida” rasmlar tanlovi ishtirokchisi haqida ma’lumot

Bolaning ismi, familiyasi va otasining ismi	
Yashash manzili (to‘liq)	
Tug‘ilgan yili va kuni (yoshi)	
Maktabgacha ta’lim tashkiloti nomi va raqami	
Tarbiyachi (ustoz)ning ismi, familiyasi va otasining ismi:	
Tarbiyachi yoki rahbarning telefon raqami	

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Tabiat bolalar nigohida” rasmlar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

BAHOLASH MEZONLARI

Ishtirokchining F.I.
SH._____
Hudud nomi_____
(viloyat,tuman/shahar)

MTT nomi_____

T/r	Mezonlar	Maksimal bal	Quyilgan bal
1.	Mavzuning *(*Nizomning 12-bandida ko‘rsatilgan mavzularidan biri*)* ochib berilishi	10 ballgacha	
2.	Badiiy-kompozitsion yechim, ranglar jilosi (tasvirlangan predmetlarga mos keladigan ranglarni tanlay olganligi)	10 ballgacha	
3.	G‘oyaning originalligi, mustaqil bajarilishi (mustaqil ravishda predmetlar shaklini aniq ko‘rsatgan holda detallarga boy tasvirlarni chizganligi)	10 ballgacha	
4.	Ish texnikasi va sifati (tasvirlarni bo‘yashda turli texnikalardan foydalanganligi va oxiriga yetkazilganligi)	10 ballgacha	
5.	Ishning badiiy yaxlitligi (dunyo va borliqni badiiy tasavvur eta olganligi, ranglar go‘zalligini his etib, seza olishi)	10 ballgacha	
Umumiy ball		**50 ball**	

Hakamlar hay’ati a’zosi
F.I.Sh_____

To‘ldirilgan sana_____ **Shaxsiy imzo_____**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-sonli buyrug‘iga
5-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Shaxmat festivali” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Shaxmat festivali” musobaqalarini tashkil etish (keyingi o‘rinlarda – Musobaqa) va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqalarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari 5-7 yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilari jalb etiladi.

2-bob. Musobaqaning maqsadi va vazifalari

3. Musobaqaning asosiy maqsadi – maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, rivojlantirish, sportga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, ularning jamiyatda moslashishiga yordam berish.

4. Musobaqaning vazifalari – bolaning aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va o‘zini namoyon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

3-bob. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish tartibi

5. Musobaqaning bosh tashkilotchilari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – Hududiy boshqarma).

6. Hududiy boshqarmalar qoshida musobaqani tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha hududiy ishchi guruhlar tuziladi.

7. Ishchi guruhlar musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

Musobaqa ustidan amaliy rahbarlik qilish uchun quyi bosqichlarida malakali mutaxassislardan iborat vakillarining ishtirokini ta’minlaydi;

hududiy ishchi guruhlar joylarda musobaqa o‘tkazilishi va musobaqaning yakuniy bosqichi o‘tkazilganligi yuzasidan hisobotlarni o‘z vaqtida (musobaqa o‘tganidan keyin 10 kun ichida) topshirilishini ta’minlaydi.

8. Musobaqa to‘rt bosqichda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari (o‘g‘il va qiz bola) o‘rtasida o‘tkaziladi:

maktabgacha ta’lim tashkiloti bosqichi har yili 1-11-aprel kunlarida tashkil etilib, tashkilot ishchi guruhi tomonidan tarbiyalanuvchilar orasidan g‘olib deb topilgan bir nafardan o‘g‘il va qiz bolalar aniqlab olinadi;

tuman (shahar) bosqichi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida g‘olib bo‘lgan o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida har yili 14-18-aprel kunlari tashkil etiladi va o‘tkaziladi;

viloyat bosqichi har yili 21-25-aprel kunlari tuman (shahar) bosqichida g‘olib bo‘lgan tarbiyalanuvchilar (o‘g‘il va qiz bola) o‘rtasida tashkil etiladi va o‘tkaziladi;

respublika bosqichi har yili 1-2-may kunlari tashkil etilib, viloyat bosqichida g‘olib bo‘lgan 28 nafar tarbiyalanuvchilar (14 nafar o‘g‘il va 14 nafar qiz bola) o‘rtasida o‘tkaziladi.

9. Musobaqa o‘tkaziladigan joyni ishchi guruh tomonidan belgilanadi hamda kamida besh kun oldin mas’ul tashkilotlarga ma’lum qilinadi.

10. Musobaqalar olimpiada tartibi asosida tashkil etiladi.

11. Ishchi guruh musobaqani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy barcha masalalarni hal etadi va hakamlar hay’ati tarkibini tasdiqlaydi.

Hakamlar hay’ati tarkibi 3-5 nafar mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi.

4-bob. Musobaqa ishtirokchilari

12. Musobaqada maktabgachata’lim tashkilotining 5-7 yoshli tarbiyalanuvchilari (o‘g‘il va qiz bola) yakka tartibda ishtirok etadi.

13. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tomonidan 1 hafta oldin musobaqa ishtirokchilari to‘g‘risidagi quyidagi hujjatlar hakamlar

hay'atiga taqdim etiladi:

bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma (surati bilan, muhrlangan) va yo'llanmasi;

bolaning sog'ligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma;

14. Yuqoridagi hujjatlarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etmagan maktabgacha ta'lim tashkiloti ishtirokchilari musobaqada ishtirok eta olmaydi.

15. Musobaqaga yuborilgan hujjatlar qaytarilmaydi.

5-bob. G'oliblarni taqdirlash tartibi

16. Musobaqa g'oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Birinchi – maktabgacha ta'lim tashkiloti bosqichi g'oliblari (tarbiyalanuvchi o'g'il va qiz bolalari) ta'lim tashkilotlarining I, II va III darajali diplomlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Ikkinchi – tuman (shahar) bosqichi g'oliblar (tarbiyalanuvchi o'g'il va qiz bolalari) tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining I, II va III darajali diplomlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Uchinchi – hududiy viloyat bosqichi g'oliblari (tarbiyalanuvchi o'g'il va qiz bolalari) hududiy boshqarmalarning I, II va III darajali diplomlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

To'rtinchi – respublika bosqichining g'oliblari (tarbiyalanuvchi o'g'il va qiz bolalari) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining I, II va III darajali diplomlari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

17. Ishtirokchilarni musobaqaga tayyorlagan tarbiyachilar tashakkurnomalar bilan taqdirlanadilar.

18. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari musobaqada homiylik qilishlari mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

19. Mazkur musobaqaning tashkilot bosqichi bilan bog'liq barcha hujjatlar (materiallar) tashkilotda, tuman (shahar) bosqichi bo'yicha hujjatlar (materiallar) tuman (shahar) bo'limlarida saqlanadi, hududiy bosqichi bo'yicha hujjatlar (materiallar) hududiy boshqarmalarda hamda yakuniy respublika bosqichi

bo‘yicha hujjatlar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida saqlanadi.

20. Musobaqani o‘tkazish jarayonlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

21. Mazkur nizom talablarining buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
6-ILOVA

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Gimnastikaga ilk qadam” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Gimnastikaga ilk qadam” musobaqasini (keyingi o‘rinlarda – musobaqa) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Gimnastikaga ilk qadam” musobaqasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 23-dekabrdagi PQ–449-son qarori, “Toshkent shahrida boks va gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyundagi PF–94-son Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida gimnastika sport turi ommaviyligini oshirish maqsadida tashkil etiladi.

3. Musobaqaga davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning 6-7 yoshgacha bo‘lgan bolalari jalb etiladi.

2-bob. Musobaqaning maqsadi va vazifalari

4. Musobaqaning asosiy maqsadi gimnastikani ommalashtirish va keng targ‘ib qilish orqali davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini gimnastika sport turi bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish.

5. Musobaqaning asosiy vazifalari bolaning aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda o‘zini namoyon qilishi uchun

shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

3-bob. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish tartibi

1-§. Musobaqani tashkil etish

6. Musobaqa Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.

Musobaqaning bosh tashkilotchilari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) hisoblanadi.

Hamkor tashkilotlar - Sport vazirligi, O‘zbekiston Gimnastika Federatsiyasi hisoblanadi.

7. Vazirlikning musobaqani tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasi tuziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – Hududiy boshqarmalar) qoshida musobaqaning hududiy bosqichini tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar (keyingi o‘rinlarda – Hududiy ishchi guruh) tuziladi.

Musobaqaning tuman (shahar) bosqichini o‘tkazish bo‘yicha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarining ishchi guruhlari tuziladi.

8. Hududiy ishchi guruhlar musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

musobaqani o‘tkazish bo‘yicha gimnastika sohasidagi malakali mutaxassislardan iborat hakamlar hay’atini shakllantiradi;

musobaqaning barcha bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazadi;

musobaqaning barcha bosqichlarini ommaviy-axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlaydi;

musobaqa yakunlari bo‘yicha axborotni vazirlik ishchi guruhiga kiritadi.

9. Hududiy boshqarmalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sport boshqarmalari bilan birgalikda hakamlar hay’ati tarkibini tasdiqlaydi.

10. Hakamlar hay’ati a’zolari gimnastika bo‘yicha milliy va xalqaro toifadagi hakamlar bo‘lishi lozim.

2-§. Musobaqani o‘tkazish tartibi

11. Musobaqa quyidagi uch bosqich va muddatlarda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilari (keyingi o‘rinlarda — ishtirokchilar) o‘rtasida o‘tkaziladi:

birinchi bosqich – tuman (shahar) saralash bosqichi – may oyining ikkinchi o‘n kunligida;

ikkinchi bosqich – hududiy saralash bosqichi – may oyining uchinchi o‘n kunligida;

uchinchi bosqich – Respublika final bosqichi – iyun oyining birinchi o‘n kunligida.

12. Musobaqaning barcha bosqichlarida o‘g‘il va qiz bola ishtirokchilar yakka tartibda alohida ishtirok etadi.

13. Musobaqada ishtirok etish uchun ishtirokchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qatnashishga monelik qiladigan tibbiyot xulosasi mavjud emasligi;

ishtirokchilar musobaqa yosh toifalariga to‘g‘ri kelishi;

arizaga muvofiq ishtirokchi bitta dasturni namoyish etishi kerak;

dasturning davomiyligi 3 daqiqa bo‘lishi zarur;

dastur namoyishida bitta va bir nechta istalgan musiqadan foydalanish mumkin.

Har qanday ovoz effektlariga ruxsat beriladi. Dastur uchun yozilgan musiqa va ovozlar aniq va tiniq bo‘lishi lozim.

Dastur davomida ishtirokchilari gimnastika jihozlaridan halqa, koptok va arqondan, gimnastika tayoqchalari va boshqa anjomlardan foydalangan holda gimnastikaning folklor, zamonaviy raqs va boshqa turlarini namoyish etishlari mumkin.

Ishtirokchilar musobaqada ishtirok etish uchun ariza bilan tuman (shahar) bosqichini tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlarga musobaqa e’lon qilingan kundan boshlab besh ish kunida murojaat qiladilar.

Arizada ishtirokchining to‘liq familiyasi, ismi va sharifi, uning tug‘ilgan sanasi va yili, tarbiyalanayotgan davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti raqami hamda taqdim etiladigan dasturning nomi va qisqacha tavsifi ko‘rsatilishi shart.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

maktabgacha ta’lim tashkiloti hamshirasi tomonidan tasdiqlangan bolaning tibbiy kartasidan ko‘chirma;

tug‘ilganlik haqida guvohnoma nusxasi;

farzandi musobaqada ishtirok etishi uchun ishtirokchining qonuniy vakillaridan birining rozilik xati.

14. Ishtirokchilar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

artistlilik;

dasturni texnik jihatdan bajarilganligi;

originallik;

uyg‘unlik (mavzuga mos musiqa, harakatlar va kiyimlarning tanlanganligi).

Har bir mezon 5 ballgacha baholanadi. Eng yuqori ball 20 ball.

15. Musobaqa qoidalarini buzgan ishtirokchilarga **5 ball jarima** belgilanadi (chiqish davomiyligi belgilangan 3 daqiqadan kam yoki oshib ketishi).

16. Musobaqaning Respublika final bosqichida eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar musobaqa g‘olibi hisoblanadi.

Musobaqaning tuman (shahar) saralash bosqichi g‘olibi bo‘lgan ishtirokchi musobaqaning hududiy saralash bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi.

Musobaqaning hududiy saralash bosqichi g‘olibi bo‘lgan ishtirokchi musobaqaning Respublika final bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi.

17. Musobaqa ishtirokchilarining ballari teng kelib qolgan vaqtda olgan jarima ballari inobatga olinadi. Bunda, kam jarima ball to‘plagan ishtirokchiga ustunlik beriladi.

4-bob. Musobaqa g‘oliblari va sovrindorlarini taqdirlash

18. Musobaqaning tuman (shahar) va hududiy saralash hamda respublika final bosqichlarida o‘g‘il va qiz bolalar bo‘yicha I o‘rin qo‘lga kiritgan ishtirokchilar g‘olib, II va III o‘rinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar sovrindor hisoblanadi.

19. Musobaqaning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari g‘oliblari va sovrindorlari diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Musobaqaning tuman (shahar) saralash bosqichi g‘oliblariga

hududiy saralash bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasi beriladi.

Musobaqaning hududiy saralash bosqichi g‘oliblariga Respublika final bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasi beriladi.

20. Musobaqaning Respublika final bosqichi g‘oliblari va sovrindorlari diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Respublika final bosqichida g‘olib bo‘lgan, musobaqa o‘tkazilgan yilda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga qabul qilinadigan yoshdagi ishtirokchilar Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabining 1-sinfiga kirish imtihonlarisiz qabul qilinishi bo‘yicha yo‘llanmaga ega bo‘ladi.

5-bob. Musobaqani moliyalashtirish tartibi

21. Ishtirokchilarni tayyorlash uchun tashkiliy xarajatlar, transport xarajatlari, turar joy va ularni ovqatlantirish xarajatlari mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

25. Musobaqani o‘tkazish jarayonlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Mazkur nizom talablarining buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
7-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari o‘rtasida VI Bolalar velomarafonini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Velosportni rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 24-sentabrdagi PQ–5251-son qaroriga muvofiq davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida VI Bolalar velomarafonini tashkil etish (keyingi o‘rinlarda – velomarafon) va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Velomarafon O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Velosport federatsiyasi bilan hamkorlikda Yevropa xavfsizlik xizmati hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi koordinatori ko‘magida o‘tkaziladi.

3. Velomarafon o‘tkazishni tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlash maqsadida vazirlik tomonidan tasdiqlangan Tashkiliy qo‘mita faoliyat yuritadi.

Tashkiliy qo‘mita o‘z faoliyatini vazirlik rahbarligida amalga oshiradi.

4. Velomarafon tadbirlarida bolalar hayoti va xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Milliy gvardiya”, “Tez yordam”, “Favqulodda vaziyatlar” xodimlari jalb etiladi.

2-bob. Velomarafonning maqsad va vazifalari

5. Velomarafonning asosiy maqsadi:

Velomarafon maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida avvalo sportga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, professional

velosport bilan shug‘ullanishga yangi imkoniyatlar yaratish.

6. Velomarafonning asosiy vazifalari:

aholi va jamoatchilik e’tiborini atrof-muhitni muhofaza qilish va transportning yashil turidan foydalanish sohasida barqaror ko‘nikmalarni shakllantirishga jalb qilish;

bolalarda yo‘llarda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish va yo‘l xavfsizligi qoidalariga rioya qilish sohasidagi barqaror ko‘nikmalarni shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya va velosportga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni chaqqon, kuchli, faol, harakatchan, zehnli va e’tiborli bo‘lishga undash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni jamoaviylik, do‘stona va raqobatbardoshlilik ruhida tarbiyalashga o‘qitish va bolalarni velosipedda uchishga tayyorlash sohasida pedagog kadrlarning malakasini oshirish;

velosportni ommalashtirish, sog‘lom turmush tarzi va erta yoshdan boshlab bolalarni velosiped madaniyatiga jalb qilishdan iborat.

3-bob. Velomarafonni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda matnda — hududiy boshqarma deb yuritiladi) Velomarafonni o‘tkazish bo‘yicha tashkilotchi hisoblanadi.

8. Sport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi velosport Federatsiyasi, Yevropa xavfsizlik xizmati hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi koordinatori hamkor tashkilot hisoblanadi.

9. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida velosport turini ommaviyligini oshirish maqsadida velomarafon o‘tkaziladigan hududlar saylanma tarzda tanlab olinadi.

10. Hududiy boshqarmalar qoshida velomarafonni tashkil etish va uni o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tuziladi.

11. Ishchi guruhlar velomarafonni yuqori saviyada o‘tkazish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari orasidan ishtirokchilarni tanlab olish va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish;

ishtirokchilari va ularning vakillari e’tiboriga velomarafonning o‘tkazilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetkazish;

hududiy ishchi guruhlar joylarda velomarafon o‘tkazilganligi yuzasidan hisobotlarni o‘z vaqtida (velomarafon o‘tganidan keyin 10 kun ichida) topshirishni ta’minlaydi.

12. Vazirlik va hududiy boshqarmalar velomarafon o‘tkazilish joyi va vaqtini kelishilgan holda belgilaydi.

13. Velomarafon ishtirokchilari:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari (6-7 yoshli qiz va o‘g‘il bolalar);

ishtirokchi tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo‘riqchilari;

mehmonlar va velomarafon tadbiri tashkilotchilari.

14. Velomarafon ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qatnashishga monelik qiladigan tibbiyot xulosasi bo‘lmagan 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilari (qiz va o‘g‘il bolalar) bo‘lishi;

velomarafonda qatnashishi belgilangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6-7 yoshli 6 nafar tarbiyalanuvchilari gender tengligiga amal qilgan holda (maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan kichik musobaqalar natijasida) tanlab olinishi;

velomarafonda qatnashishi belgilangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 2 nafar pedagog hamda 1 nafar jismoniy tarbiya yo‘riqchilari (o‘rniga uslubchi ham ishtirok etishi mumkin) jalb etiladi.

15. Velomarafonni o‘tkazish uchun eni 3 metr, uzunligi 300 yoki 500 metr aylanma trassa bo‘lishi talab etiladi.

16. Velomarafon shartlari:

velomarafon davomida vaqt va tezlik inobatga olinmaydi;

velomarafonning “Start” chizig‘iga trassa eni bo‘ylab 9 qatorda 4 nafardan tarbiyalanuvchilar joylashadi;

velomarafon davomida har bir qatordagi ishtirokchi oldida bir nafar kuzatuvchi (pedagog, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi yoki uslubchi) biriktiriladi;

velomarafon ishtirokchilarining birinchi guruhi trassaning yarmiga yetganda keyingi guruh ishtirokchilariga start beriladi.

O‘zbekiston Velosport Federatsiyasining sportchilari ham bolalar kuzatuvchilari sifatida trassaga jalb qilinishi mumkin.

17. Ishtirokchilarning majburiyatlari:

har bir ishtirokchining velosipedi (begovel) texnik jihatdan soz bo‘lishi;

yosh va sog‘ligi jihatdan bolalar to‘g‘ri tanlangan bo‘lishi va ishtirok etishi;

tegishli formaga ega bo‘lishi (bosh uchun veloshlem, tirsak va tizza uchun maxsus himoya vositalari);

trassada pedagoglar ishtirok etishi va zarur holatlarda bolalarga yordam berishi mumkin.

4-bob. G‘oliblarni taqdirlash tartibi

18. Velomarafon ishtirokchilari vazirlik, YXHT va hududiy hokimliklarning medal va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

19. Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari velomarafonda homiylik qilishlari mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

20. Velomarafon talablarini to‘laqonli bajarilishi uchun javobgarlik hududiy boshqarmalar boshliqlari va vazirlikka yuklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
86-son buyrug‘iga
8-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Jajji nurli yulduzlar” festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur nizom davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida **“Jajji nurli yulduzlar”** festivalini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Mazkur festivalga davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 5-7 yoshli tarbiyalanuvchilari (keyingi o‘rinlarda – ishtirokchilar) jalb etiladi.

2-bob. Festivalning maqsadi va vazifalari

Festivalning asosiy maqsadi:

Maktabgacha yoshdagi iste’dodli bolalarni aniqlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, rivojlantirish, qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish;

bolalarning san’at va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni targ‘ib qilish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida bolalarning san’at va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, havaskorlik san’ati, xalq og‘zaki ijodiyotini yanada rivojlantirish va milliy cholg‘u asboblaridan foydalanishga o‘rgatish;

bolalar o‘rtasida do‘stlik va ijodiy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Festivalning vazifalari:

maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni milliy madaniyat va san’atga jalb qilish;

Iqtidorli bolalarni aniqlash va rag‘batlantirish;

“Ustoz-shogird” tizimiga rioya qilgan holda iqtidorli bolalarning talant darajasiga yetishi mumkin bo‘lgan potensiallarini aniqlash va ularni yanada rivojlantirish;

Iqtidorli bolalarni aniqlash va rag‘batlantirish;

Erta yoshdan bolalarni rivojlanish me’yorlaridan ustunligini hisobga olish, madaniy ahamiyatga ega yutuqlarni namoyish etishga sharoit yaratish;

iste’dodli va tashabbuskor bolalarni san’at va madaniyat sohalaridagi salohiyatini namoyon qilishi, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishi, yangi tashabbuslar bilan chiqishlari uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat.

3-bob. Festivalni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

Festival O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tomonidan Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

Festival quyidagi bosqichlar va muddatlarda o‘tkaziladi:

birinchi bosqich – tuman (shahar) saralash bosqichi – avgust oyining birinchi o‘n besh kunligida;

ikkinchi bosqich – hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) saralash bosqichi – sentabr oyining birinchi o‘n kunligida;

uchinchi bosqich – Respublika final bosqichi – sentabr oyining ikkinchi o‘n kunligida.

Festivalning barcha bosqichlari quyidagi nominatsiyalari bo‘yicha o‘tkaziladi:

“**Sehrli harakat**” (Raqs) – turli milliy va zamonaviy raqs ijrosi;

“**Ajdodlar merosi**” (Folklor) – xalq ertaklari, maqollar, matallar va milliy an’analarni aks ettiruvchi chiqishlar;

“**Jajji xonanda**” (Qo‘shiq) – bolalar va milliy qo‘shiqlar ijrosi;

“**Mo‘jizaviy kuylar**” (Kuy) – milliy cholg‘u asboblarida ijro etilgan musiqiy chiqishlar.

Festival vazirlikning tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – tashkiliy qo‘mita) tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari huzuridagi ishchi guruhlar (keyingi o‘rin-

larda – ishchi guruhlar) festivalning hududiy saralash bosqichini tashkil etadi va o‘tkazadi

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzuridagi ishchi guruhlar (keyingi o‘rinlarda – ishchi guruhlar) festivalning tuman (shahar) saralash bosqichini tashkil etadi va o‘tkazadi.

Bunda, ishchi guruhlar tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Festivalning barcha bosqichlarida har bir nominatsiya bo‘yicha ishtirokchilarning ijodiy chiqishlarini Madaniyat vazirligining hududiy bo‘linmalari mutaxassislari, Bolalar musiqa va san’at hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa o‘qituvchilari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining musiqa rahbarlari, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining hududiy bo‘linmalari mutaxassislaridan iborat tarkibda hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Hakamlar hay’ati tarkibi tegishliligi bo‘yicha tashkiliy qo‘mita hamda ishchi guruhlar tomonidan tasdiqlanadi.

Ishtirokchilar o‘z iqtidorlarini quyidagi yo‘nalishlarda namoyish etadi:

“Sehrli harakat” nominatsiyasi ishtirokchilari yakkaxon tartibda raqs ijro etadilar. Ishtirokchiga ijodiy chiqishi uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

Bunda, ishtirokchi raqsining musiqasi yoki qo‘shig‘i uning vakili tomonidan olib kelinadi.

“Ajdodlar merosi” nominatsiyasi ishtirokchilari jamoaviy ishtirok etadilar. Jamoaga 10 nafargacha ishtirokchilar qatnashadilar. Ijodiy chiqishi uchun 6 daqiqa vaqt beriladi.

Jamoalar ixtiyoriy folklor qo‘shiqlar va xalq termalarini ijro etishadi.

Bunda, jamoaning ijodiy chiqishi bo‘yicha zarur musiqalar ishtirokchilarning vakillari tomonidan olib kelinadi.

“Jajji xonanda” nominatsiyasi ishtirokchilari yakkaxon tartibda ishtirok etadilar. Ishtirokchilar ixtiyoriy janrda qo‘shiq kuylaydilar. Ishtirokchiga ijodiy chiqishi uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

Bunda, ishtirokchi kuylaydigan qo‘shiqning musiqasi ishtirokchining vakili tomonidan olib kelinadi.

“Mo‘jizaviy kuylar” nominatsiyasi ishtirokchilari yakkaxon tartibda ishtirok etadilar. Ishtirokchilar milliy cholg‘u asboblari orqali ixtiyoriy kuyni ijro etadilar. Ishtirokchiga ijodiy chiqishi uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

Bunda, ishtirokchi tomonidan kuy ijro etadigan milliy cholg‘u asbobi uning vakili tomonidan olib kelinadi.

Hakamlar hay’ati ishtirokchilarning ijodiy chiqishlarini mazkur nizom ilovasi bilan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida 100 ballik baholash tizimi orqali baholaydilar.

Festival yakunida har bir nominatsiya bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar g‘olib hisoblanadi.

Ishtirokchilarning ballari teng kelib qolgan taqdirda ijro etgan badiiy asarining murakkabligi bo‘yicha qo‘shimcha ball beriladi.

4-bob. Festival ishtirokchilarini taqdirlash

Festivalning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlarida I-o‘rinni egallagan ishtirokchilar g‘olib, II-, III-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar sovrindor hisoblanadi.

Festivalning Respublika final bosqichida I, II va III o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar g‘olib hisoblanadi.

Festivalning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlari g‘oliblari va sovrindorlari diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Festivalning tuman (shahar) saralash bosqichi g‘oliblariga hududiy saralash bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasi beriladi.

Festivalning hududiy saralash bosqichi g‘oliblariga Respublika final bosqichida ishtirok etish yo‘llanmasi beriladi.

Festivalning Respublika final bosqichi g‘oliblari va sovrindorlari diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

5-bob. Festivalni moliyalashtirish

16. Festivalning tuman (shahar) va hududiy saralash bosqichlarini o‘tkazish hamda g‘oliblar va sovrindorlarni taqdirlash xarajatlari mahalliy byudjet va homiylik mablag‘lari hisobidan moliya-

lashtiriladi.

17. Festivalning Respublika final bosqichini o‘tkazish hamda g‘oliblarini taqdirlash xarajatlari belgilangan tartibda vazirlikning madaniy tadbirlar uchun ajratilgan mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Ushbu nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19. Mazkur nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari
tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Jajji nurli yulduzlar”
festivalini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

“Jajji nurli yulduzlar” festivali ishtirokchilarning ijodiy chiqishlarini baholash mezonlari

I. “Sehrli harakat” (Raqs) nominatsiyasi baholash mezonlari

№	Yo‘nalishlar	Mezonlar	Maksimal ball
1.	Ijodiy yondashuv va original g‘oya	1. Raqs mazmuni va g‘oyasi aniq ifodalangan bo‘lishi. 2. Harakatlar va sahnaviy obraz uyg‘unligi. 3. Raqs janrining o‘ziga xosligini saqlagan holda ijodkorlik qo‘llanilishi.	20 ball
2.	Texnik mahorat	1. Harakatlarning aniqligi va to‘g‘ri bajarilishi. 2. Ritm va tempga mos harakat qilish qobiliyati. 3. Raqs elementlarining murakkablik darajasi va ijrochilik saviyasi.	20 ball
3.	Sahnada harakatlanish va artistizm	1. Ijro jarayonida ishtirokchining sahnada o‘zini tutishi. 2. Mimikalar, qo‘l-oyoq harakatlarining ifodali bo‘lishi. 3.Tomoshabin bilan bog‘lanish va ifodaviy chiqish.	20 ball
4.	Musiqaga moslik	1. Musiqa va harakatlarning uyg‘unligi. 2. Raqs uslubiga mos musiqa tanlanganligi. 3. Musiqaning dinamikasiga mos ravishda harakatlar bajarilishi.	20 ball
5.	Kostyum va umumiy sahnaviy obraz	1. Raqsga mos libos tanlanishi. 2. Sahnadagi ko‘rinish va bezaklarning umumiy uyg‘unligi. 3. Ishtirokchining umumiy obraz bilan uyg‘unligi va sahnaviy ko‘rinishi.	20 ball
Umumiy ball			**100 ball**

II. “Ajdodlar merosi” nominatsiyasi baholash mezonlari

№	Yo‘nalishlar	Mezonlar	Maksi-mal ball
1.	Folklor asarining tarixiy va mada-niy qadriyatlarni aks ettirishi	1. Ijro etilayotgan qo‘shiq yoki terma milliy urf-odat va qadriyatlarni qan-chalik aks ettirishi. 2. Matn va musiqaning an’analarga mosligi. 3. Mahalliy yoki mintaqaviy folklor uslubiga rioya qilinishi.	20 ball
2.	Ijro sifati va vokal mahorati	1. Jamoaning tovush uyg‘unligi va qo‘shiqni to‘g‘ri ijro etishi. 2. Vokal diapazonining to‘g‘ri ishla-tilishi. 3. Ritm, temp va ohangga mos ijro etilishi.	20 ball
3.	Jamoaviy uyg‘un-lik va hamjihatlik	1. Ishtirokchilarning bir-biri bilan uyg‘un harakat qilishi. 2. Ovoz balansi va hamohanglik darajasi. 3. Jamoaning sahnaviy madaniyati va tartibli ijro etishi.	20 ball
4.	Sahnaviy chiqish va milliy obraz	1. Sahna ko‘rinishi va jamoa ishtirok-chilarining milliy obraz yaratishi. 2. Liboslarning folklor ijroga mosligi. 3. Sahnaviy chiqishning tomoshabin-ga ta’siri va ifodaliligi.	20 ball
5.	Ijodiy yondashuv va musiqaga moslik	1. Qo‘shiq yoki terma ijrosiga ijodiy o‘ziga xoslik qo‘shilganligi. 2. Musiqa va sahnaviy harakatlar-ning uyg‘unligi. 3. Mahalliy yoki zamonaviy element-lar bilan folklor san’atini boyitish.	20 ball
Umumiy ball			**100 ball**

III. “Jajji xonanda” nominatsiyasi baholash mezonlari

№	Yo‘nalishlar	Mezonlar	Maksimal ball
1.	Vokal mahorati	1. Tovushning tiniqligi va texnik ijro darajasi. 2. Ovoz diapazonidan to‘g‘ri foydalanish. 3. Nafas olish texnikasining to‘g‘ri ishlatilishi.	20 ball
2.	Musiqaga moslik va ritm hissi	1. Qo‘shiqning temp va ritmiga mos ravishda ijro etilishi. 2. Ohang va intonatsiyaning aniq bajarilishi. 3. Musiqiy uslubga mos ijro etish	20 ball
3.	Ijodiy yondashuv va artistizm	1. Ishtirokchining sahnaviy harakati va his-tuyg‘ularni yetkazish mahorati. 2. Qo‘shiqning mazmunini ifodali kuylash. 3. Tomoshabin bilan bog‘lanish va tabiiy harakatlar.	20 ball
4.	Sahnaviy chiqish va obraz	1. Qo‘shiq mavzusiga mos libos tanlanishi. 2. Sahna madaniyati va o‘zini tutish. 3. Umumiy sahnaviy ko‘rinish va xarizma.	20 ball
5.	Ijroning murakkablik darajasi	1. Tanlangan qo‘shiqning vokal va musiqiy murakkabligi. 2. Jonli ijro elementlaridan foydalanish. 3. Ishtirokchining musiqiy imkoniyatlaridan maksimal foydalanishi.	20 ball
Umumiy ball			**100 ball**

IV. “Mo‘jizaviy kuylar” nominatsiyasi baholash mezonlari

№	Yo‘nalishlar	Mezonlar	Maksimal ball
1.	Ijro texnikasi va mahorati	1. Cholg‘u asbobidan to‘g‘ri va samarali foydalanish. 2. Kuyning toza va aniq ijro etilishi. 3. Qo‘llar texnikasi va asbobni boshqarish mahorati.	20 ball
2.	Musiqaga moslik va ritm hissi	1. Kuyning an’anaviy ohang va ritmga mos kelishi. 2. Temp va dinamikani to‘g‘ri boshqarish. 3. Notalar va kuy intonatsiyasining aniq bajarilishi.	20 ball
3.	Ijodiy yondashuv va ifodalilik	1. Ishtirokchining sahnaviy harakati va his-tuyg‘ularni yetkazish mahorati. 2. Qo‘shiqning mazmunini ifodali kuylash. 3. Tomoshabin bilan bog‘lanish va tabiiy harakatlar.	20 ball
4.	Sahnaviy chiqish va obraz	1. Kuy mazmuniga mos libos va sahna ko‘rinishi. 2. Sahna madaniyati va ishtirokchining o‘zini tutishi. 3. Tomoshabin bilan bog‘lanish va ishonchli chiqish.	20 ball
5.	Ijroning murakkablik darajasi	1. Kuy ijrosining texnik va musiqiy murakkabligi. 2. Cholg‘u asbobining imkoniyatlaridan maksimal foydalanish. 3. Kuy ijrosida qo‘shimcha bezak va o‘ziga xos elementlar qo‘shish.	20 ball
Umumiy ball			**100 ball**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish maqsadida buyuraman:

1. Quyidagilar:

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishiga qo‘yilgan talablar va baholash mezoni 2-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish bo‘yicha fanlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risidagi sertifikat namunasi 4-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risida sertifikatlar berish bosqichlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Respublika ta’lim markazi o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi.

3. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga:

uch kun muddatda ommalashtirish.uz platformasini Respublika ta’lim markazidan qabul qilib olish;

ommalashtirish.uz platformasi orqali metodik ishlarni qabul qilish jarayonlarini tashkil etish;

ommalashtirish.uz platformasidan foydalanish bo‘yicha pedagoglarga targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish vazifalari

yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, Pedagogik mahorat markazlari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 17-mart,
89-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17-martdagi
89-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish hamda maktab ta’limi tizimidagi tajribali pedagog kadrlar, jumladan, fan o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va ommalashtirish tartibini (keyingi o‘rinlarda – ommalashtirish tartibi) belgilaydi.

2. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) va Pedagogik mahorat markazlari o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va ularni ommalashtirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi ishchi organ hisoblanadi.

3. Mazkur ommalashtirish tartibi umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari, maxsus maktab-internatlari, mehrli maktab o‘qituvchilariga tatbiq qilinadi va ixtiyoriy hisoblanadi.

2-bob. Ommalashtirish maqsadi

4. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quv jarayoniga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

3-bob. Ommalashtirish bosqichlari

5. Ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg‘or ish tajribalar (keyingi o‘rinlarda – metodik ish) metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishda bo‘lishi lozim.

Metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishida bo‘lmagan hamda o‘tgan yillar davomida ommalashtirilgan metodik ish-

lar o‘rganilmaydi.

6. Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

maktab miqyosida;

tuman (shahar) miqyosida;

viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosida;

respublika miqyosida.

7. Maktab miqyosida ommalashtirish: Umumta’lim muassasasining fan o‘qituvchisi (keyingi o‘rinlarda – talabgor) tomonidan ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo‘nalishlar bo‘yicha maktabning Metodbirlashmasi tomonidan muhokama qilinadi hamda ilg‘or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning Pedagogik kengashiga tavsiya etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning metodik ishi mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezoniga muvofiq ishlab chiqilganligi o‘rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo‘yicha Pedagogik kengash qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va ommalashtirish.uz platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Bunda, quyidagi hujjatlar talabgor tomonidan ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi:

maktab miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risida Pedagogik kengash qarorining elektron (pdf) nusxasi;

ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan metodik ishi (metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya)ning elektron (pdf) nusxasi;

talabgor to‘g‘risida ma’lumotnoma (obyektivka) va mutaxassisligi bo‘yicha diplom nusxasi.

8. Tuman (shahar) va viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish:

ommalashtirish.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Muvofiqlashtiruvchi ishchi organning tegishli fanlar bo‘yicha O‘quv metodik kengashi tomonidan o‘rganib chiqiladi. Ushbu jarayonlarga Pedagogik mahorat markazlarining pedagoglarni kasbiy rivojlanish bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari mas’ul hisobla-

nadi.

Quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha O‘quv-metodik kengashlar tashkil etiladi:

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi;

filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili, qardosh tillar) yo‘nalishi;

rus va xorijiy tillar fanlari yo‘nalishi;

ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo‘nalishi;

aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo‘nalishi;

tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fanlar) yo‘nalishi;

amaliy fanlar (musiqa madaniyati, tasviriy san’at, texnologiya) yo‘nalishi;

jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) yo‘nalishi.

O‘quv-metodik kengash tarkibi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi metodik xizmat bo‘limlarining metodistlari, kafedralar professor-o‘qituvchilari hamda boshqa ta’lim muassasalarining ijodkor, tajribali o‘qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. O‘quv-metodik kengash a’zolari yo‘nalishlar bo‘yicha 9-15 nafardan iborat bo‘ladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal 80 ball bilan baholanadi. Talabgor tomonidan tayyorlangan metodik ish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezoniga asosan baholanadi.

Bunda, 50-65 ball bilan baholangan metodik ishlar tuman (shahar) miqyosida, 66-80 ball bilan baholangan metodik ishlar viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va ommalashtirish.uz platformasi orqali sertifikat olish uchun yuboriladi.

Shundan, 75-80 ball bilan baholangan metodik ish respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Qoraqalpoq tilidagi metodik ishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi hamda Pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda o‘rganib chiqilib, O‘quv metodik kengash qarori aso-

sida respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Bosqichlar uchun talab etiladigan ballarni to‘play olmagan talabgorlarning metodik ishi asoslantirilib, ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida tegishli O‘quv metodik kengashi qarori har yili 15-mayga qadar ommalashtirish.uz platformasiga joylashtirilishi lozim.

O‘quv metodik kengash qaroridan norozi bo‘lgan talabgorlar uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Ommalashtirish.uz platformasi orqali tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan ishlar Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O‘quv metodik kengash qaroriga muvofiq Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan sertifikat beriladi.

9. Respublika miqyosida ommalashtirish:

Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O‘quv metodik kengash tavsiyasi asosida respublika miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan metodik ishlar Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashida o‘rganiladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi Institut hamda Respublika ta’lim markazining 9-11 nafar mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashiga Institut rektori hamda Respublika ta’lim markazi direktori hamraislik qiladi.

Respublika miqyosidagi ommalashtirish bosqichida talabgor tomonidan metodik ishi yuzasidan taqdimot qilinadi va maksimal 20 ball bilan baholanadi. Taqdimot uchun baholash mezoni Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan bir oy oldin ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Taqdimot jarayoni videoyozuvda qayd qilinadi. Videoyozuv Institutda bir yil davomida saqlanadi.

Respublika bosqichida umumiy 86-100 ball bilan baholangan metodik ish Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qili-

nadi hamda har yili 30-mayga qadar ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qaroridan norozi bo‘lgan talabgorlar uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

4-bob. Ommalashtirish bo‘yicha berilgan sertifikatlarning amal qilish muddatlari

Metodik ishning tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) va respublika miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risidagi sertifikat berilgan kundan boshlab uch yilga;

maktab miqyosida ommalashtirilgan metodik ish uchun sertifikat berilmaydi va maktab miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risida Pedagogik kengash qarori asos hisoblanib, uch yilga amal qiladi.

Sertifikatlar faqat Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan beriladi hamda ommalashtirish.uz platformasi orqali talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

5-bob. Apellyatsiya komissiyasi

10. Tuman (shahar), viloyat bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organining O‘quv metodik kengash tarkibiga kirmagan 3-5 nafargacha tegishliligi bo‘yicha yuqori malakali fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Respublika bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tarkibiga kirmagan 3-5 nafargacha tegishliligi bo‘yicha yuqori malakali fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlaridagi apellyatsiya komissiya tarkibiga boshqa muassasa va tashkilotlardan mutaxassislar jalb etish mumkin.

Appelyatsiya jarayonida talabgorning ishtirokisiz, uning metodik ishi va taqdimotining videoyozuvi ko‘rib chiqiladi.

11. Apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

O‘quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati

qondirilishini rad etish;

O‘quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi kengashi qarorini o‘zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish.

Bunda, O‘quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati qanoatlantirilishini rad etish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya shikoyati mazkur tartib talablari buzilgan holda taqdim etilgan bo‘lsa;

metodik ishiga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga muvofiq to‘g‘ri qo‘yilgan deb topilsa.

O‘quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o‘zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish to‘g‘risidagi qaror metodik ishga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga zid ravishda qo‘yilgan deb topilsa qabul qilinadi.

12. Takroriy apellyatsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Talabgor Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga yoki yuqori turuvchi tashkilotlarga shikoyat qilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

14. Ommalashtirishga tavsiya etilmagan metodik ishga Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashining yakuniy qarorida qayd etilgan izohdan boshqa qo‘shimcha xulosalar berilmaydi.

15. Respublika miqyosida ommalashtirilgan barcha metodik ishlardan doimiy ravishda o‘qituvchilar foydalanishlari uchun metodik ishlar ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

16. Mazkur Nizom vazirlik tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin hamda Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 17 -martdagi
89-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar va baholash mezoni

Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaga qo‘yilgan talablar

I. Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaning tuzilishi

1.1 Muqova (titul)

1.2 Sarlavha

1.3 Annotatsiya

1.4 Tarkib

1.5 Mundarija

1.6 Kirish

1.7 Asosiy qism

1.8 Xulosa

1.9 Ilovalar (qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar – agar bor bo‘lsa.)

II. Mazmunga qo‘yilgan talablar

2.1 Amaldagi fan dasturlariga mos ravishda yoki dasturlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilganligi;

2.2 Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyada “Qanday o‘qitish kerak?” degan savol ochib berilishi, shuningdek, topshiriq namunalari, shakllar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar, xaritalar va shunga o‘xshash yordamchi elementlardan foydalanish bo‘yicha tushuntirishlarning mavjudligi;

2.3 Taklif qilinayotgan metodikaning yangiligi;

2.4 Fan, kasb, mavzulararo integratsiyaning mavjudligi.

2.5 Muayyan pedagogik muammoni hal qilish, o‘quv dasturining ayrim bo‘lim, bob va mavzularni o‘rganishga qaratilganligi;

2.6 Tanlangan mavzuning dolzarb bo‘lishi, o‘qituvchilarga mavzu yuzasidan aniq ma’lumot berilishi, aniq metodik maqsadga yo‘naltirilganligi;

2.7 O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyatlar va xulq-atvorni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar va materiallar bilan bir qatorda

strategiyalar, o‘qitish usullari va metodlari, o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilishi;

2.8 O‘quv sohasi, mavzusi va o‘quvchilarni tadqiqotga, kundalik hayotda uchragan turli muammolarga yechim topishga yo‘naltiradigan loyihalar va shunga o‘xshash amaliy tadqiqotlarning mavjudligi;

2.9 O‘quvchilarga qaratilgan amaliy topshiriqlarni yaratish usullari, o‘yinlar, tanlovlar, viktorinalar uchun namunali savollar, ochiq tadbirlar, sayohat rejalarini tashkil etish usullarining mavjudligi;

2.10 Zarur tushunchalar lug‘ati kiritilganligi;

2.11 Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi.

III. Shakliy-texnik talablar:

3.1 Metodik qo‘llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 betdan iborat bo‘lishi kerak:

annotatsiya 4-8 gapdan oshmasligi;

kalit so‘zlar (indeksatsiya uchun) 6-8 so‘zdan iborat bo‘lishi;

“Times new roman” shrifti, “Microsoft word” redaktoridan foydalanish;

betlarni avtomatik tarzda belgilash;

jadvallar “microcoft word”ning “tablitsa” funksiyasi orqali kiritish;

matn shrifti 12-14, qatorlar oralig‘i 1 intervalda bo‘lishi;

ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);

matnda foydalanilgan adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida berilishi, foydalanilgan manbalar ro‘yxati kamida 5 nomdan iborat bo‘lishi kerak. Agar qo‘llanma nazariy havolalarni talab qilmasa, faqat amaliy bo‘lsa, unda foydalanilgan manbalar ro‘yxatini taqdim qilmasa bo‘ladi.

bo‘limlar soni va hajmi cheklanmagan.

IV. Til, uslub, ma’no va ifodaga qo‘yilgan talablar

O‘zbek tilidan to‘g‘ri foydalanish; tilning ifoda boyligi, ma’no nozikliklariga e’tibor berish;

tildan foydalanishda til va madaniy meros xususiyatlariga ega

bo‘lgan adabiy mahsulotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni buzmaydigan noziklikka rioya qilish;

hali tilga kirib ulgurmagan, o‘zbekcha ekvivalenti bo‘lmagan xorijiy so‘zlarga izoh berish;

jargon, haqorat, kamsitish va h.k. bayonotlar kiritilmasligi;

o‘quvchilarning sinf darajalariga mos til va ularning so‘z boyligini boyitish;

tarkibda semantik yoki strukturaviy ifoda buzilishi bo‘lmasligi;

tarkibda hech qanday imloviy, tinish va uslubiy xato bo‘lmasligi;

asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiq bo‘lishi;

ifoda tamoyillari (ravonlik, soddalik, ravshanlik, oddiylik) keraksiz ritorika va iboralardan uzoqda va tushunarli bo‘lishi;

ifoda keraksiz so‘zlardan, bir xil ma’noli iboralardan va so‘z takrorlaridan xoli bo‘lishi;

matnni tashkil etuvchi birliklar (gap, paragraf va boshqalar) o‘rtasidagi ma’no va ifodaning yaxlitligi ta’minlanishi kerak.

V. Mualliflik huquqi va plagiat

Barcha yozma va vizual tarkibdagi iqtiboslar va havolalar mualliflik huquqi qonunchiligiga muvofiq qilinishi kerak. Plagiatni aniqlash dasturining originallik belgilangan standart me’yorlarga to‘g‘ri kelmagan ish nollashtiriladi.

VI. Titul sarlavha sahifasi tuzilishi

Yuqori qismida ushbu hujjat topshirilgan muassasaning nomi ko‘rsatilgan bo‘lishi;

sarlavhaning nomi varaqning o‘rtasida katta harflarda va bo‘yoqdor shaklda yozilishi;

sarlavhadan biroz pastroqda, muallif haqida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak: ish joyi, lavozimi va familiyasi, ismi, otasining ismi.

Eng pastki qismida (markazda) shahar va yil ko‘rsatilishi kerak, ya’ni ushbu qo‘llanma qayerda va qachon yaratilganligini anglatadi.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2025.